

**2025-2026-O'QUV YILIDA  
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING**

**11-SINF**

**O'QUVCHILARI UCHUN**

**O'ZBEK TILI**

**(DAVLAT TILI)**

**FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI  
O'TKAZISH BO'YICHA  
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

# **2025-2026 O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING 11-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN O‘ZBEK TILI (DAVLAT TILI) FANIDAN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI TEST TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilarining o‘zbek (davlat) tili fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonlari hamda o‘tkazish tartibiga qo‘yilgan talablarni belgilaydi.

## **I. Umumiy prinsiplar**

Baholash maqsadi – 11-sinf o‘quvchilarining o‘zbek (davlat) tili fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi o‘quv dasturlarida belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlarning asosli (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlik, adolatlik hamda ochiqlik prinsiplariga amal qilinishi ta’minlanadi.

## **II. Huquqiy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 56-sonli burug‘i bilan tasdiqlangan, “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom”.

2. O‘zbek (davlat) tili fanidan 5–11-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 16-martdagi “2025-2026-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 102-son buyrug‘i.

## **III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt**

O‘quvchilarning o‘zbek (davlat) tili fanini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 20 ta variant taqdim etiladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari fan bo‘limlari kesimida tuzilib, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, uslubiyat va matnni tushunish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, topshiriqlar bilim, qo‘llash va fikrlash faoliyatiga doir baholash mezonlari asosida ishlab chiqiladi.

Har bir variantda o‘quvchiga 20 ta topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqlardan: 5 ta bilishga oid, 14 ta qo‘llashga oid, 1 ta mulohazaga oid bo‘ladi.

**1-qism:** 17 ta qisqa javobli topshiriqdan tashkil topgan. Bunda javob bitta yoki bir nechta raqam, bosh harf bilan yozilgan javob ko‘rinishida berilishi kerak.

**2-qism:** Kengaytirilgan javobli 3 ta topshiriqni o‘z ichiga oladi, berilgan topshiriqqa asosli dalillar bilan batafsil hamda ijodiy fikr yuritib, yozma javob beradi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi test sinovlari uchun **150** daqiqa vaqt ajratiladi.

#### IV. Test topshiriqlarining turlari bo‘yicha taqsimot

Topshiriq turi	Izohi	Topshiriq soni
Ko‘p tanlovli yopiq test (Y1)	Savol mazmuniga mos bo‘lgan javob variantlari ichidan to‘g‘rilarini topishni talab etadigan yopiq test topshiriqlar	17 ta
Kengaytirilgan javobli ochiq test (O3)	Savolga batafsil javob yozishni talab qiladigan yozma topshiriqlar	3 ta

#### V. Kognitiv ko‘nikmalar bo‘limlar bo‘yicha taqsimoti

Bilish (B)		Qo‘llash (Q)		Mulohaza (M)		Umumiy ball
soni	ball	soni	ball	soni	ball	
<b>O‘zbek tili</b>						
5	4 balдан (20 ball)	14	6-17-savollar 4 balldan 18-savol 8 ball 19-savol 12 ball (68 ball)	1 ta	12 ball	<b>100 ball</b>

Kognitiv daraja	Izohi	Testlar soni (ta)
<b>Bilish (B)</b>	Bilish darajasidagi, ya’ni reproduktiv topshiriqlar, o‘quvchidan fanga doir nazariy ma’lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo‘llanishini tushunishni talab qiladi.	5

<b>Qo‘llash (Q)</b>	Qo‘llash darajasidagi, ya‘ni produktiv topshiriqlar, o‘quvchidan bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo‘llashni talab qiladi.	14
<b>Mulohaza qilish (M)</b>	Mulohaza darajasidagi, ya‘ni faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish.	1

**VI. Baholanadigan mazmun sohalari, bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar, topshiriq turi, kognitiv daraja va baholash mezonlari**

<b>Mazmun soha</b>	<b>Savol t/r</b>	<b>Konstruktlar</b>	<b>Kognitiv darajasi</b>	<b>Baholash mezoni</b>
<b>O‘zbek tili 1-qism qisqa javobli</b>				
<b>Kelishik qo‘shimchalari</b>	<b>1</b>	Kelishik qo‘shimchalari haqida bilimga ega bo‘lish. So‘z tarkibida kelishik qo‘shimchalarini farqlay olish	B	4 ball
<b>Iboralar</b>	<b>2</b>	Iboralar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish, iboralar anglatgan ma‘nolarni anglay olish va gap tarkibidagi iboralarni ajratish. Iboralar ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay olish	B	4 ball
<b>Ko‘chma ma‘noli so‘zlar</b>	<b>3</b>	Ko‘chma ma‘noli so‘zlar haqida ma‘lumot bera olish, ko‘chma ma‘noli so‘zlarni ajrata olish va gap tarkibidagi ko‘chma ma‘noli so‘zlarni ajratish va qiyoslash	B	4 ball
<b>So‘zning ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari (sinonim, antonim so‘zlar)</b>	<b>4</b>	Sinonim va antonim so‘zlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish, sinonim va antonim so‘zlarni aniqlay olish va gap tarkibida sinonim va antonim so‘zlarni erkin ajratish, sinonim va antonim so‘zlar ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay olish.	B	4 ball

<b>Soʻzning maʼno munosabatiga koʻra turlari (omonim, paronim soʻzlar)</b>	<b>5</b>	Omonim va paronim soʻzlar haqida maʼlumot berish, omonim va paronim soʻzlarni aniqlay olish va gap tarkibida omonim va paronim soʻzlarni erkin ajratish, omonim va paronim soʻzlar ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay olish	B	4 ball
<b>Soʻz birikmasi</b>	<b>6</b>	Soʻz birikmasi haqida maʼlumotga ega, soʻz birikmasini soʻz bilan taqqoslay olish	Q	4 ball
<b>Soʻz birikmasi va gap</b>	<b>7</b>	Soʻz birikmasi va gap haqida maʼlumotga ega, soʻz birikmasi va gapni farqlay olish	Q	4 ball
<b>Soʻz birikmasining bogʻlanish usullari</b>	<b>8</b>	Soʻz birikmasining bogʻlanish usullarini bilish, bitishuv, moslashuv va boshqaruv usulida soʻz birikmasi hosil qilish, soʻz birikmalari orasidan kerakli bogʻlanishga oid soʻz birikmalarini ajrata olish	Q	4 ball
<b>Tasviriy ifoda</b>	<b>9</b>	Tasviriy ifoda haqida umumiy maʼlumotga ega, ularni gap tarkibida ajrata olish, soʻzlar bilan almashtira olish	Q	4 ball
<b>Undalma</b>	<b>10</b>	Undalma haqida umumiy maʼlumotga ega, undalmalarni qoʻllab gap tuza olish va gap tarkibidagi undalmalarni ajrata olish, undalma ishtirok etgan mosliklarni taqqoslay olish.	Q	4 ball
<b>Nutq uslublari (soʻzlashuv, badiiy uslublari)</b>	<b>11</b>	Soʻzlashuv va badiiy uslub haqida maʼlumotga ega, matnlarni qaysi nutq uslubiga oid ekanini aniqlay olish va nutq uslublarni taqqoslay olish	Q	4 ball
<b>Nutq uslublari (rasmiy,</b>	<b>12</b>	Rasmiy, publististik va ilmiy uslub haqida maʼlumotga ega,	Q	4 ball

<b>publitsistik, ilmiy uslublar)</b>		matnlarni qaysi nutq uslubiga oid ekanini aniqlay olish va nutq uslublarini taqqoslay olish		
<b>Ajratilgan bo‘laklar</b>	<b>13</b>	Ajratilgan bo‘laklar haqida ma‘lumotga ega, gap tarkibida ajratilgan bo‘laklarni ajrata olish	Q	4 ball
<b>Kiritmalar</b>	<b>14</b>	Kiritma bo‘laklar haqida ma‘lumotga ega, gap tarkibida kiritma bo‘laklarni qo‘llash, kiritma bo‘lakli gaplar tarkibidan kiritma bo‘laklarni ajrata olish va qiyoslash	Q	4 ball
<b>Uyushiq bo‘laklar</b>	<b>15</b>	Uyushiq bo‘laklar haqida ma‘lumotga ega, gapda uyushiq bo‘laklarni topib, moslashtira olish	Q	4 ball
<b>Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (darak, so‘roq)</b>	<b>16</b>	Darak va so‘roq gaplarni ajrata olish, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlariga oid topshiriqlarni bajara olish.	Q	4 ball
<b>Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (buyruq, istak)</b>	<b>17</b>	Buyruq va istak gaplarni ajrata olish, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlariga oid topshiriqlarni bajara olish.	Q	4 ball
<b>2-QISM to‘liq javobli</b>				
<b>Matn va uning turlari</b>	<b>18</b>	Matn va uning turlari haqida ma‘lumotga ega, gap va matnni farqlay olish, mazmunan bir-biriga mos gaplar ishtirokida matn tuza olish.	Q	8 ball
<b>Fe‘l zamonlari</b>	<b>19</b>	Fe‘l zamonlari haqida ma‘lumotga ega, gap tarkibidagi fe‘llarni zamonlarga ajrata olish, fe‘lning har uchala zamoniga oid gap tuza olish.	Q	12 ball
<b>Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap</b>	<b>20</b>	Ko‘chirma va o‘zlashtirma gap haqida ma‘lumotga ega bo‘lish,	M	12 ball

		ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gapga aylantira olish, gaplar orasidan ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarni ajrata olish, o‘zlashtirma gap va ko‘chirma gaplarni qiyosiy taqqoslay olish.		
<b>Jami</b>	<b>20 ta</b>			<b>100 ball</b>

## VII. Ballni bahoga aylantirish tartibi

Ball (%)	Baho	Izoh
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a’lo”

## VIII. Sinov jarayoniga qo‘yiladigan talablar

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki eslatmalardan foydalanish qat’iyan taqiqlanadi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon vaqtida gaplashish hamda ruxsatsiz chiqish taqiqlanadi.

Nazorat qiluvchi tomonidan tartib buzilishi aniqlanganda dalolatnoma tuziladi, o‘quvchi testdan chetlashtiriladi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. O‘zbek tili 5-sinf A. Rafiyev, G. Muxamedjanova, N. Alovuddinova – “O‘qituvchi ” Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi Toshkent – 2020
2. O‘zbek tili 6-sinf X.S. Muxitdinova, Ya.I. Avlaqulov, D.A. Nuriddinova – “Yangi yo‘l poligraf servis ” Toshkent – 2017
3. O‘zbek tili 7-sinf X.S. Muxitdinova, Ya.I. Avlaqulov, D.A. Nuriddinova. – “O‘qituvchi ” Nashriyot-Matbaa Ijodiy Uyi Toshkent – 2017
4. O‘zbek tili 8-sinf X. Muxitdinova – “O‘qituvchi ” Nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2024
5. O‘zbek tili 9-sinf A.Rafiyev, G.Muxamedjanova – “O‘qituvchi ” Nashriyot – matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2024

6. O‘zbek tili 10-sinf G.Asilova, D.Hidoyatova, N.Rasulov, G.G‘ulomova, I.Hojiyeva, G.Sattorova – Respublika ta’lim markazi Toshkent – 2022

7. O‘zbek tili 11-sinf X.S.Muhitdinova, G.Z.Muxamedjanova, F.S.Talipova, R.B.Eshbayeva – “Davr nashriyoti” Toshkent – 2018

8. O‘zbek tili 11-sinf X.Muxitdinova, F.Tolipova, D.Nuriddinova, Sh.Abduraimov, R.Eshboyeva – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2020



## 1-SAVOL

### 1. Qaysi javoblarda qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan? (Bilish)

- 1) Maktab bog'iga ko'chatlar ekdik
- 2) Navoiy g'azallaridan yodladik.
- 3) Yer haydasang kuz hayda.
- 4) Qizlar ariq bo'yida dam olishyapti.
- 5) Aziza hozir test ishlayapti

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 2. Javoblarning qaysi birida kelishik qo'shimchalari berilgan? (Bilish)

- 1) –gan
- 2) –da
- 3) – dan
- 4) –im
- 5) –ga
- 6) –ni
- 7) –lar
- 8) –ning
- 9) –gacha
- 10) –dagi

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 3. Quyidagilar orasidan faqat bosh kelishikdagi so'zlar berilgan javoblarni yozing. (Bilish)

- 1) Ukamning, quyosh, maktab
- 2) Bemor, bolalar, yurak
- 3) So'zga, yoshlik, maktabda
- 4) Shahar, inson, oila
- 5) Daraxtga, uydan, qalam
- 6) Muhabbat, bizga, qishloqda

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 4. Berilgan javoblarning qaysi biriga qaratqich kelishigi qo'shimchasini qo'yish mumkin? (Bilish)

- 1) O'quvchi \_\_\_\_\_ kitobi
- 2) Kitob \_\_\_\_\_ o'qimoq
- 3) Kitob \_\_\_\_\_ muqovasi
- 4) Gullar \_\_\_\_\_ suv quymoq

- 5) Uzum \_\_\_\_\_ uzmoq
- 6) Eshik \_\_\_\_\_ rangi
- 7) Bog‘ \_\_\_\_\_ ishlamoq
- 8) Gul \_\_\_\_\_ xushbo‘y hidi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**5. Javoblarning qaysi birida kelishik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida tovush o‘zgarishi yuz bergan so‘zlar mavjud? (Bilish)**

- 1) Mening kitobim
- 2) O‘shandan oldin
- 3) Ukamning orzusi
- 4) Bizning bayrog‘imiz
- 5) Sening uying
- 6) Shunga o‘xshash

**Javob:** \_\_\_\_\_

**6. Qaysi kelishik qo‘shimchalari so‘zlarga qo‘shilganda tovush o‘zgarishlari (fonetik hodisalar) sodir bo‘ladi? (Bilish)**

- 1) Bosh kelishik
- 2) Qaratqich kelishigi
- 3) Tushum kelishigi
- 4) Jo‘nalish kelishigi
- 5) O‘rin-payt kelishigi
- 6) Chiqish kelishigi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. *Qutidor do‘koniga jo‘naganidan keyin Oftob oyim To‘ybekani mehmonxonaga buyurdi.* Ushbu gapda qaysi kelishik qo‘shimchalari qo‘llangan? (Bilish)**

- 1) Bosh kelishik
- 2) Qaratqich kelishigi
- 3) Tushum kelishigi
- 4) Jo‘nalish kelishigi
- 5) O‘rin-payt kelishigi
- 6) Chiqish kelishigi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. O‘rin-payt kelishigidagi so‘z qaysi gaplarda ot-kesim vazifasini bajargan? (Bilish)**

- 1) Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir.

- 2) Mehr va qadr bor yerda hamma narsa bor
- 3) Vatan har bir insonning yuragida, qalbida.
- 4) Kuch – bilim va tafakkurda
- 5) Malika opaning ikkala o‘g‘li shaharda o‘qiydi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**9. Ko‘p til.... bilmoqlik.... foydasi katta, u inson... katta boyligi hisoblanadi. Berilgan gapda qaysi kelishik qo‘shimchalari tushirib qoldirilgan? (Bilish)**

- 1) Bosh kelishik
- 2) Qaratqich kelishigi
- 3) Tushum kelishigi
- 4) Jo‘nalish kelishigi
- 5) O‘rin-payt kelishigi
- 6) Chiqish kelishigi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**10. Moslashtiring (Bilish)**

1	Qaratqich kelishigi	a	-ga
2	Tushum kelishigi	b	-dan
3	Jo‘nalish kelishigi	c	-ni
4	O‘rin-payt kelishigi	d	-ning
5	Chiqish kelishigi	e	-da

**Javob:** 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_ 5 \_\_\_\_\_

## 2-SAVOL

**1. “O‘z harakatlarini boshqara olmaydigan darajaga yetdi” ma’nosida qo‘llanuvchi ibora qaysi javobda berilgan? (bilish)**

- 1) Aqlini tanidi
- 2) Aql-u hushini yo‘qotdi
- 3) Aqlini topdi
- 4) Aqlini yo‘qotdi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**2. “Baland keldi” iborasining ma’nolari qaysi javoblarda to‘g‘ri izohlangan? (bilish)**

- 1) Ustun keldi
- 2) Ulg‘aydi
- 3) Yengdi

4) G'olib keldi

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 3. Moslashtiring (bilish)

1	Yerga ursang, ko'kka sapchiydi	a)	eski
2	Almisoqdan qolgan	b)	xursand
3	Ilonning yog'ini yalagan	c)	sho'x
4	Boshi osmonga yetdi	d)	shirinso'z
5	Og'zidan bol tomadi	e)	ayyor

**Javob:** 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_ 5 \_\_\_\_\_

### 4. Javoblarning qaysi birida "xursand" so'zi bilan sinonimlik hosil qiladigan ibora berilgan? (bilish)

- 1) Bu xabarni eshitib Azizjonning tepa sochi tikka bo'ldi
- 2) Abrorjon og'zi qulog'iga yetib uydan otilib chiqdi
- 3) Meni yo'qlab kelibsan, bolam, boshim osmonga yetdi
- 4) Qiz qadamini tezlatib, o'ziga o'zi jilmayib, xursandligidan ichiga sig'may borardi
- 5) Birovning dilini siyoh qilmaydigan kuni ham bormikan?
- 6) Xabarni eshitib, do'ppisini osmonga otdi

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 5. Moslashtiring (bilish)

1	Oyog'ini yerga tiramoq	a	o'tishga imkon bermoq
2	Yo'l bermoq	b	ziyrak, sezgir
3	Yoqasini ushlamoq	c	hamma
4	Yer tagida ilon qimirlasa biladi	d	qaysarlik qilmoq
5	Yetti yoshdan yetmish yoshgacha	e	ajablanmoq

**Javob:**

1		2		3		4		5	
---	--	---	--	---	--	---	--	---	--

### 6. Berilgan gaplarning qaysi birida ibora qatnashgan? (bilish)

- 1) Bola oqimga qarshi suzib, ariqning boshiga yetdi
- 2) Bema'ni gaplari uning boshiga yetdi
- 3) Nodirjon onasini boshida ko'tarib yuradi

- 4) Bolalar uyni boshlariga ko‘tarishdi
- 5) Shifokor dorini bolaning qulog‘iga quydi
- 6) Bobo kerakli nasihatlarini nevarasining qulog‘iga quydi
- 7) Kamola opasini juda yaxshi ko‘radi
- 8) Qizingizning ko‘zlari juda yaxshi ko‘radi
- 9) Boshida ko‘tarib kelayotgan tugunchasini asta yerga qo‘ydi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. “Tashvish tortmoq” iborasining antonimi berilgan javoblarni aniqlang. (bilish)**

- 1) Ko‘ngli xira bo‘ldi
- 2) Ta‘bi tirriq bo‘ldi
- 3) Ko‘ngli yorishdi
- 4) Qo‘yi mingga yetdi
- 5) Yuragi yorishdi
- 6) Ko‘nglidagi g‘ashlik tarqadi
- 7) Ko‘ngli g‘ashlandi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. “Es-hushini yig‘di” iborasining ma‘nolari qaysi javoblarda to‘g‘ri izohlangan? (bilish)**

- 1) Behush bo‘ldi
- 2) Parishonlikdan qutuldi
- 3) Esankiradi
- 4) O‘ylab ish tutadigan bo‘ldi
- 5) Jinni bo‘ldi
- 6) Qattiq qo‘rqdi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**9. Javoblarning qaysi birida ma‘nodosh iboralar berilgan? (bilish)**

- 1) Do‘ppisini osmonga otdi – og‘zi qulog‘iga yetdi
- 2) Oro bermoq – zeb bermoq
- 3) Ruhi tushdi – ruhi ko‘tarildi
- 4) Osmonga ko‘tarmoq – ko‘kka ko‘tarmoq
- 5) Ot bilan tuyacha – yer bilan osmoncha
- 6) Savol bermoq – javob bermoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**10. Iboralarning qaysi biri “vaqtni behuda o‘tkazmoq” ma‘nosini ifodalaydi? (bilish)**

- 1) Pinagini buzmaslik
- 2) Pashshadan fil yasamoq
- 3) Pashsha qo‘rimoq
- 4) Pixini yorgan

**Javob:** \_\_\_\_\_

### **3-SAVOL**

#### **1. Ko‘chma ma’nodagi so‘zlar berilgan javoblarni aniqlang (bilish)**

- 1) Shirin bola
- 2) Shirin qovun
- 3) Arqonni uzdi
- 4) Aloqani uzdi
- 5) Oltin uzuk
- 6) Oltin kuz
- 7) Majburiyatni olmoq
- 8) Ketmon olmoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

#### **2. Ko‘chma ma’nodagi so‘zlar berilmagan javoblarni aniqlang (bilish)**

- 1) Tosh yo‘l
- 2) Tosh nok
- 3) Toza uy
- 4) Toza qalb
- 5) O‘lim yoqasi
- 6) Ko‘ylak yoqasi
- 7) Qattiq yer
- 8) Qattiq ko‘ngil

**Javob:** \_\_\_\_\_

#### **3. Faqat bir ma’noli so‘zlar berilgan javoblarni aniqlang (bilish)**

- 1) Harf
- 2) Iliq
- 3) Telefon
- 4) Gul
- 5) Bosh
- 6) Qaror
- 7) Qalin
- 8) Atama

**Javob:** \_\_\_\_\_

**4. Predmetlar o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida ma'no ko'chgan javobni aniqlang (bilish)**

- 1) Samolyotning dumi
- 2) Qozon qulog'i
- 3) Ko'chaning boshi
- 4) Elektr chirog'i

**Javob:** \_\_\_\_\_

**5. Qaysi javobdagi birikmalarda bir harakatning boshqa harakatga o'xshashligi asosida ma'no ko'chgan? (Bilish)**

- 1) Narxi tushdi
- 2) Qalin do'st
- 3) Oy mo'raladi
- 4) Hayot guli
- 5) Bozor qaynadi
- 6) Savol tug'ildi
- 7) Hasad olovi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**6. Bir narsaning boshqa narsaga o'xshashligi asosida ma'no ko'chgan javoblarni aniqlang (bilish)**

- 1) Samolyotning dumi
- 2) Arraning tishi
- 3) Tilla bolta
- 4) Qora kun
- 5) Daryoning yoqasi
- 6) Iliq muomala
- 7) Majnuntolning sochi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. Ko'chma ma'nodagi so'zlar qatnashgan gaplarni aniqlang. (Bilish)**

- 1) Ko'zoynak bugun darsga kelmagan
- 2) Yaqinda archa bayramini nishonlaymiz
- 3) Shifokor iliq suv bilan chayishni maslahat berdi
- 4) Onaizor urushga ketayotgan o'g'liga yumshoq nonni tishlatdi
- 5) Boshi yaxshi ishlaydi, shekilli
- 6) O'rmonlar Yer sayyorasining o'pkasi hisoblanadi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. Javoblarning qaysi birida bir belgi boshqa belgiga o‘xshashligi asosida ma’no ko‘chgan? (Bilish)**

- 1) Yengil jarohat
- 2) Katta odam
- 3) Tog‘ning etagi
- 4) Shirin xotira
- 5) O‘zini oqladi
- 6) Anor yuz
- 7) Ijtimoiy tarmoqlar portladi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**9. Bahorning iliq havosi shahzodaning qalbida iliq hissiyotlarni paydo qildi. Berilgan gapda qaysi so‘z ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qatnashgan. (bilish)**

- 1) iliq
- 2) Bahor
- 3) Shahzoda
- 4) hissiyot
- 5) havo
- 6) qalb

**Javob:** \_\_\_\_\_

**10. “Toshmoq” so‘zi qaysi so‘zlar bilan qo‘llansa, ko‘chma ma’noni ifodalaydi? (bilish)**

- 1) Suv
- 2) Ichi
- 3) Quvonchi
- 4) Daryo
- 5) Zavqi

**Javob:** \_\_\_\_\_

#### **4-SAVOL**

**1. Berilgan paronimlarning ma’nosi to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang. (bilish)**

1	Ahil	a	Totuv, inoq
2	Burj	b	Bir soha odamlari
3	Burch	c	12ta yulduz turkumi
4	Ahl	d	majburiyat



**Javob:**

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**2. Berilgan paronimlarning ma'nosi to'g'ri izohlangan javobni belgilang. (bilish)**

1	Ganch	a	Boylik, xazina
2	Bob	b	Qurilish materiali
3	Ganj	c	Kitobning qismlari
4	Bop	d	Munosib

**Javob:**

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**3. Berilgan paronimlarning ma'nosi to'g'ri izohlangan javobni belgilang. (bilish)**

1	Xol	a	Erkin, ozod
2	Hol	b	Badandagi tug'ma dog'
3	Xur	c	Ahvol
4	Hur	d	Tovush

**Javob:**

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**4. Berilgan so'zlarni guruhlang. (bilish)**

*Shodlanmoq, bezovtalanmoq, hayajonlanmoq, faxrlanmoq, ajablanmoq, sevinmoq, achchiqlanmoq, to'lqinlanmoq, hayron qolmoq, g'azablanmoq, nafratlanmoq, hayratlanmoq*

<b>Ijobiy</b>	<b>Hayajon</b>	<b>Ajablanish</b>	<b>Salbiy</b>

**5. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qiladigan so'zni toping (bilish)**

- 1) **Mashaqqatli** mehnat
- 2) **Vazmin** odam
- 3) **Azobli** turmush

**Javob:** \_\_\_\_\_

**6. Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qiladigan so'zni toping (bilish)**

- 1) **Qattiq** ovoz
- 2) Bo'yi **uzun**
- 3) **Ko'p qavatli** bino

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. Qaysi gaplarda so'z qo'llash bilan bog'liq xato mavjud? (bilish)**

- 1) Quyosh hamal yulduzlar burchiga o'tdi
- 2) Noming o'chsin, urush!
- 3) Tulki xiyla bilan uni tuzoqqa tushirmoqchi bo'ldi
- 4) Kotiba direktorning topshiriqlarini qayt etdi
- 5) Saroy ayonlari podshohga qarshi chiqdi
- 6) Kitobning birinchi bobini o'qib tugatdim

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. "Odam" so'zining ma'nodoshlari berilgan javoblarni aniqlang. (bilish)**

- 1) Inson
- 2) Bashar
- 3) Kishi
- 4) Maxluq
- 5) Kimsa
- 6) Shaxs
- 7) Qarindosh
- 8) xalq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**9. Javoblarning qaysi birida o'zaro ma'nodosh so'zlar berilgan? (bilish)**

- 1) G'alaba – zafar – muzaffariyat
- 2) Suluv – chiroyli – go'zal – xushro'y
- 3) Ma'rifat – jaholat
- 4) Olma – o'rik – anor – gilos
- 5) Inoq- ahil – totuv
- 6) Yurak – qalb – dil

**Javob:** \_\_\_\_\_

**10. Javoblarning qaysi birida shakldosh so'zlar berilgan? (bilish)**

- 1) Quymoq
- 2) O'sma

- 3) Chiroyli
- 4) Tush
- 5) Mushak
- 6) Chang
- 7) Avval
- 8) Buyuk

**Javob:** \_\_\_\_\_

## **5-SAVOL**

**1. Qarama-qarshi ma'noli so'zlar berilgan qatorlarni aniqlang. (bilish)**

- 1) Muhabbat – nafrat
- 2) Asal – bol
- 3) Yo'g'on – ingichka
- 4) Tez – sekin
- 5) Asir – asr
- 6) Ilg'or – qoloq
- 7) Borlik – borliq
- 8) Pinhon – maxfiy

**Javob:** \_\_\_\_\_

**2. Javoblarning qaysi birida shakldosh so'zlar berilgan? (bilish)**

- 1) O't
- 2) Ot
- 3) Burch
- 4) Olma
- 5) Karam
- 6) Urush
- 7) Suluv

**Javob:** \_\_\_\_\_

**3. "o'l" so'zining ma'nolari qaysi javoblarda to'g'ri izohlangan? (bilish)**

- 1) Olov
- 2) Hayvon nomi
- 3) O'simlik
- 4) O'tmoq
- 5) Sabzavot turi
- 6) Ism

**Javob:** \_\_\_\_\_

**4. Javoblarning qaysi birida shakldosh soʻzlar berilgan? (bilish)**

- 1) Tuz
- 2) Sanʼat
- 3) Dam
- 4) Oʻch
- 5) Sher
- 6) Yosh
- 7) Ism

**Javob:** \_\_\_\_\_

**5. Berilgan hukmlardan qaysi biri toʻgʻri? (bilish)**

- 1) Paronim soʻzlar faqat bir turkum doirasida boʻladi
- 2) Antonim soʻzlar vositasida tazod sheʼriy sanʼati yaratiladi
- 3) Sinonim soʻzlar bir turkum doirasida boʻladi
- 4) Omonimlar - aytilishi va yozilishi bir xil, ammo maʼnosi boshqa boʻlgan soʻzlar
- 5) Shakldosh soʻzlar faqat bir turkum doirasida boʻladi
- 6) Maʼnodosh soʻzlarda ijobiy yoki salbiy maʼno boʻlishi mumkin

**Javob:** \_\_\_\_\_

**6. Javoblarning qaysi birida “yuz” soʻzining salbiy xususiyatga ega maʼnodoshlari berilgan? (bilish)**

- 1) Aft
- 2) Chehra
- 3) Jamol
- 4) Bashara
- 5) Turq
- 6) Ruxsor
- 7) Bet

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarning birikishidan yangi maʼnoli soʻzlar hosil qilingan javoblarni aniqlang. (bilish)**

- 1) Yosh-u qari
- 2) Eski-yangi
- 3) Uzoq-yaqindan
- 4) Achchiq-chuchuk
- 5) Oz-koʻp
- 6) Uzun-qisqa

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. Javoblarning qaysi birida “keksa” so‘zining ma’nodoshlari berilgan? (bilish)**

- 1) Oila
- 2) Mo‘ysafid
- 3) Qari
- 4) Oqsoqol
- 5) Inson
- 6) Nuroniy
- 7) Katta

**Javob:** \_\_\_\_\_

**9. Zid ma’noli so‘zlar berilgan javoblarni aniqlang. (bilish)**

- 1) Sog‘lom – kasal
- 2) Erinchoq – dangasa
- 3) Sodda – ayyor
- 4) Yopiq – ochiq
- 5) Buyuk – ulug‘
- 6) Taom – ovqat
- 7) Urush – tinchlik
- 8) Hamma – barcha

\_\_\_\_\_

**10. Zid ma’noli so‘zlar berilmagan javoblarni aniqlang. (bilish)**

- 1) Sog‘lom – kasal
- 2) Erinchoq – dangasa
- 3) Sodda – ayyor
- 4) Yopiq – ochiq
- 5) Buyuk – ulug‘
- 6) Taom – ovqat
- 7) Urush – tinchlik
- 8) Hamma – barcha

**Javob:** \_\_\_\_\_

## **6-SAVOL**

**1. So‘z birikmasi berilmagan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) faqat sen
- 2) qimmat, ammo sifatli
- 3) havo issiq
- 4) mening kitobim

- 5) badnafs kitob
- 6) daftarga chizmoq
- 7) tikuvchi qiz

**Javob:** \_\_\_\_\_

**2. Moslashtiring va soʻz birikmalari tuzing (qoʻllash)**

1	daraxt..... chiqmoq	a	-ni
2	daraxt.... uzmoq	b	-ning
3	daraxt... kesmoq	c	-dan
4	daraxt... shoxi	d	- ga

**Javob:** 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**3. Mos keluvchi koʻmakchilarni qoʻllab, soʻz birikmalari tuzing. (qoʻllash)**

1	telefon..... gaplashmoq	a	boʻylab
2	qoshiq ..... yemoq	b	orqali
3	daryo ..... yurmoq	c	haqida
4	kelajak .... oʻylamoq	d	bilan

**Javob:** 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**4. Mos keluvchi soʻzlarni qoʻllab, soʻz birikmalari tuzing. (qoʻllash)**

1	gʻayrat bilan .....	a	kelmoq
2	doska yoniga .....	b	ishlamoq
3	kitob haqida .....	c	ekmoq
4	koʻcha boshidan .....	d	chiqmoq
5	bogʻ atrofiga .....	e	gapirmoq

**Javob:** 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_ 5 \_\_\_\_\_

**5. Soʻz birikmasi qismlarini bogʻlovchi vositalar berilgan javoblarni aniqlang. (qoʻllash)**

- 1) Kelishik qoʻshimchalari
- 2) Soʻroq yuklamalari
- 3) Koʻmakchilar
- 4) –lar qoʻshimchasi
- 5) Egalik qoʻshimchalari
- 6) maʼno
- 7) olmoshlar

**Javob:** \_\_\_\_\_

**6. Tobe qismi ot bilan ifodalangan soʻz birikmalari berilgan javoblarni aniqlang. (qoʻllash)**

- 1) gulning yaprogʻi

- 2) mening daftari
- 3) shahardan qaytmoq
- 4) sakkizta xona
- 5) yaxshi yashash
- 6) uyda o'tirmoq
- 7) sahroda kezmoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. Tobe qismi sifat bilan ifodalangan so'z birikmalari berilgan javoblarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) chiroyli ko'ylak
- 2) kech qaytmoq
- 3) yaxshi yashash
- 4) noiloj ko'nmoq
- 5) sharafli ish
- 6) bu kitob
- 7) tez o'qimoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. Qatorlarning qaysi birida grammatik vositalarsiz faqat ma'no orqali bog'langan (bitishuv) so'z birikmalari berilgan. (qo'llash)**

- 1) birga ovqatlanmoq
- 2) ikkinchi urinish
- 3) kollej hovlisi
- 4) to'satdan kirmoq
- 5) o'ylab gapirmoq
- 6) bo'rondan kuchli
- 7) sotib olmoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**9. Hokim qismi sifat bilan ifodalangan so'z birikmalari berilgan javoblarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) mendan kuchli
- 2) iliq suv
- 3) voqeadan xabardor
- 4) shunday o'lka
- 5) kuzgi bug'doy
- 6) gapirishga oson
- 7) hammadan katta

**Javob:** \_\_\_\_\_

**10. Berilgan hukmlardan qaysi biri so'z birikmasiga xos? (qo'llash)**

- 1) Ikki mustaqil so'zdan tashkil topadi

- 2) Soʻzlar oʻzaro teng va tobe bogʻlanadi
- 3) Tobe qismi ikkinchi darajali boʻlak boʻladi
- 4) Soʻzlar maʼno jihatidan bogʻlanadi
- 5) Soʻzlar grammatik jihatidan bogʻlanadi

**Javob:** \_\_\_\_\_

## 7-SAVOL

### 1. Qatorlarda berilgan birliklarni guruhlang. (qoʻllash)

- 1) Mustaqil Vatan
- 2) Vatanimiz – mustaqil
- 3) Ikki qavatli maktab
- 4) Maktab ikki qavatli
- 5) Koʻchalar yorugʻ
- 6) Obod mahalla
- 7) Mahalla obod
- 8) Yorugʻ koʻchalar

Soʻz birikmalari	Gaplar

### 2. Quyidagi birliklardan qaysi biri shakl (koʻrinish) jihatidan soʻz birikmasiga oʻxshaydi? (qoʻllash)

- 1) Sodda soʻzlar
- 2) Qoʻshma soʻzlar
- 3) Iboralar
- 4) Juft soʻzlar

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 3. Qaysi qatorda berilgan soʻz birikmalarini gapga aylantirish mumkin. (qoʻllash)

- 1) Qiziqarli mashgʻulot
- 2) Maqola oʻqimoq
- 3) Gʻazal yodlamoq
- 4) Oydin kecha
- 5) Shirin qovun
- 6) Chiroyli gul
- 7) Samarali ishlamoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

### 4. Tobe qismidagi soʻzlar koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻz birikmalari berilgan qatorlarni aniqlang. (qoʻllash)



- 1) kumush qoshiq
- 2) temir intizom
- 3) tilla soat
- 4) qora sovuq
- 5) qo‘li gul
- 6) arraning tishi
- 7) uzukning ko‘zi
- 8) tilla bola
- 9) kumush qish
- 10) qora qalam

**Javob:** \_\_\_\_\_

**5. “o‘z Vatanini sevgan kishi” so‘z birikmasida ham hokim, ham tobe vazifasini bajargan so‘zlarni toping. (qo‘llash)**

- 1) vatanini
- 2) o‘z
- 3) sevgan
- 4) kishi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**6. Qaysi qatordagi birliklar erkin birikma hisoblanadi? (qo‘llash)**

- 1) aybni bo‘yniga qo‘ymoq
- 2) qilichni bo‘yniga qo‘ymoq
- 3) ko‘prikdan o‘tkazmoq
- 4) dorini qulog‘iga quymoq
- 5) gapni qulog‘iga quymoq
- 6) ariqning boshiga yetmoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**7. Qatorlarning qaysi birida tobe qismi yasama so‘zlardan iborat bo‘lgan so‘z birikmalari berilgan. (qo‘llash)**

- 1) chiroyli sharshara
- 2) sog‘lom fikr
- 3) bezatilgan stol
- 4) issiq kiyinmoq
- 5) tikuvchi qiz
- 6) shaharlik kelin
- 7) shunday yashamoq

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8. Berilgan birliklarni guruhlang. (qo‘llash)**

- 1) Keng hovli
- 2) Bola o'qigan
- 3) Shu maqsad
- 4) Maqsad shu
- 5) Hovli keng
- 6) Ko'p topshiriq
- 7) Xona sakkizta
- 8) O'qigan bola

So'z birikmalari	Gaplar

**9. Moslashtiring. (qo'llash)**

1	Ma'nosi izohlanayotgan so'z	a	tobe so'z
2	Bosh so'zning ma'nosini izohlayotgan so'z	b	hokim so'z

**Javob:** 1. \_\_\_\_\_ 2. \_\_\_\_\_

**10. Javoblarning qaysi birida so'zlar faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'langan? (qo'llash)**

- 1) Tez termoq
- 2) Yoshlarga g'amxo'rlik qilmoq
- 3) Ishchan o'quvchi
- 4) Do'stlar bilan uchrashuv
- 5) Chiroyli gapirmoq
- 6) Xonalarning kattarog'i
- 7) Qizil olma

**Javob:** \_\_\_\_\_

**8-SAVOL**

**1. Moslashtiring. (qo'llash)**

1	Mustaqil so'zlarning grammatik vositalarsiz, faqat ohang va ma'no jihatdan bog'lanishi	a	boshqaruv
2	Tobe so'zning hokim so'zga kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchi yordamida bog'lanishi	b	moslashuv

3	Tobe soʻzning qaratqich kelishigi, hokim soʻzning egalik qoʻshimchalari yordamida bogʻlanishi	c	bitishuv
---	---	---	----------

**Javob:** 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_

**2. Moslashuv va boshqaruv aloqasi mavjud boʻlgan gaplarni aniqlang. (qoʻllash)**

- 1) Oʻzingni er bilsang, oʻzgani sher bil
- 2) Yillar mana shu tarzda osoyishta oʻtar edi
- 3) Umidsizlik uyin buzsang, umidingga yetarsan
- 4) Biz rostgoʻylik va halollikni hamisha ulugʻlaymiz
- 5) Shifokor dorini bolaning qulogʻiga quydi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**3. Qaysi gapda soʻz birikmalarining birikish usuliga koʻra barcha turi ishtirok etgan? (qoʻllash)**

- 1) Men ular bilan toʻrt marta gaplashdim
- 2) Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni samimiyatga chorlaydi
- 3) Shavkatlarning kattagina uzumzor bogʻi bor
- 4) Polvonning kuchli qoʻli oʻziga tortadi

**Javob:** \_\_\_\_\_

**4. Berilgan soʻz birikmalarini birikish usuli bilan moslashtiring. (qoʻllash)**

- 1) olma sharbati, mahallaning qariyalari, kitobning sahifasi
  - 2) oʻqigan bola, chindan ishonmoq, rostdan gapirmoq
  - 3) daftarga yozmoq, shahardan qaytmoq, suv ichmoq
- A) boshqaruv    B) bitishuv    C) moslashuv

**Javob:**

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

**5. Berilgan soʻz birikmalarini birikish usuli bilan moslashtiring. (qoʻllash)**

- 1) kech qaytmoq, yashil doska, haq yoʻlimiz
  - 2) qovunning hidi, maktubning mazmuni, uyning eshigi
  - 3) bugʻdoyni ekmoq, boʻr bilan yozmoq, maktab bormoq
- A) boshqaruv    B) bitishuv    C) moslashuv

**Javob:**

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

**6. Berilgan soʻz birikmalarini birikish usuli bilan moslashtiring. (qoʻllash)**

- 1) ukamning orzusi, bulbulning ovozi, vatan ravnaqi
- 2) tiniq osmon, zavqlanib gapirmoq, olgʻa bormoq
- 3) futbol haqida gaplashmoq, fizikaga oid masala, sahro kezmoq

A) bitishuv    B) boshqaruv    C) moslashuv

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

**7. Qaysi gapda so‘z birikmalarining birikish usuliga ko‘ra barcha turi ishtirok etgan? (qo‘llash)**

- 1) Derazaning ochiq tabaqasidan kirayotgan shamol darpardani xomushgina silkitar edi.
- 2) Kechasi tiniq osmonda yulduzlar charaqlaydi.
- 3) Gulnigor stolning ostiga berkindi.
- 4) Biz SHERALINI to‘y bilan qutladik.

**8. Qaysi gapda so‘z birikmalarining birikish usuliga ko‘ra barcha turi ishtirok etgan? (qo‘llash)**

- 1) Laziz ukasini ikki soatcha kutdi.
- 2) Shu payt mehmonxonaning eshigini birov qattiq taqillatdi.
- 3) Feruz olgan qarzini o‘n bir yildan beri qaytarmadi.

**9. Berilgan so‘z birikmalarini birikish usuli bilan moslashtiring. (qo‘llash)**

- 1) tiniq daryo, bezatilgan stol, issiq kiyinmoq
- 2) qunt bilan o‘qimoq, xat yozdirmoq, zavq bilan tinglamoq
- 3) ukamning ishi, bizning ko‘cha, kollej hovlisi

A) moslashuv    B) bitishuv    C) boshqaruv

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

**10. Javoblarning qaysi birida so‘z birikmalari berilmagan? (qo‘llash)**

- 1) tezyurar ruchka
- 2) biz bilan
- 3) Zuhraning akasi
- 4) Havo issiq
- 5) yayov kezmoq
- 6) bolani uxladi
- 7) sohilda kezmoq

## 9-SAVOL

**1. Qatorlarda berilganlar orasidan to‘g‘ri hukmlarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Tasviriy ifodalar ayrim narsalarning ikkinchi nomi sanaladi
- 2) Tasviriy ifodalar nutqning ta’sirchanligini ta’minlaydi

- 3) Tasviriy ifodalar turli soʻz turkumlariga xos boʻlgan obrazli ifodalardir
- 4) Tasviriy ifodalar, asosan, publitsistik uslubda qoʻllanadi
- 5) Tasviriy ifoda har doim koʻchma maʼnoga asoslanadi

**2. Berilgan tasviriy ifodalarning mazmuniga mosini topib moslashtiring. (qoʻllash)**

1	qora oltin	a)	qushlar
2	oltin boshqoq	b)	neft
3	qanotli doʻstlar	c)	makkajoʻxori
4	dala malikasi	d)	bugʻdoy

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**3. Berilgan soʻzlarning mazmuniga mos tasviriy ifodalarni topib moslashtiring. (qoʻllash)**

1	maqol	a)	hayotimiz Qomusi
2	Konstitutsiya	b)	poʻlat ot
3	traktor	c)	poʻlat qush
4	samolyot	d)	soʻz koʻrki

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**4. Berilgan tasviriy ifodalarning mazmuniga mosini topib moslashtiring. (qoʻllash)**

1	Samo lochini	a)	televizor
2	Zangori ekran	b)	Yer
3	Baraka urugʻi	c)	uchuvchi
4	Zangori gilam	d)	chigit

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**5. Berilgan tasviriy ifodalarning mazmuniga mosini topib moslashtiring. (qoʻllash)**

1	Oltin boshqoq	a)	televizor
2	Oynayi jahon	b)	don
3	Salomatlik posbonlari	c)	choʻponlar
4	Yaylov bahodirlari	d)	shifokorlar

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**6. Berilgan tasviriy ifodalar orasidan “maqol” soʻzini tasvirlovchi soʻz birikmasini toping. (qoʻllash)**

- 1) otalar soʻzi
- 2) fikr qaymogʻi
- 3) aql gimnastikasi

- 4) soʻz koʻrki
- 5) bilim bulogʻi

7. Qatorlarda berilgan tasviriy ifodalarning qaysi biri geografik joy nomini anglatadi? (qoʻllash)

- 1) Sharq marvaridi
- 2) Sehrli diyor
- 3) Futbol qiroli
- 4) Dunyo tomi
- 5) Osiyo ajdahosi
- 6) Koʻkning fonusi
- 7) Kunchiqar mamlakat

8. Gaplarda berilgan tasviriy ifoda birikmalariga mos soʻzlarni toping. (qoʻllash)

- 1) Ilm zahmatkashlarining tinimsiz harakatlari natijasida tabiatning juda koʻp sir-sinoatlari ochildi.
  - 2) Kunchiqar mamlakati quyoshni birinchi boʻlib qarshilaydi.
  - 3) Yurtimizda maʼrifat maskanlari koʻpaydi.
  - 4) Sayohatchilar sahro kemalarida sayr qilishdi.
- A) tuya    B) Yaponiya    C) olimlar    D) kutubxonalar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

9. Gaplarda ajratib koʻrsatilgan soʻzlarga mos keluvchi tasviriy ifodalarni toping. (qoʻllash)

- 1) Bola **samolyot**ga qoʻllarini siltab qoldi.
  - 2) **Choʻponlar** oʻz vazifalarini yaxshi bilardilar.
  - 3) Ukamga **sher** haqida ertak oʻqib berdim.
  - 4) **Onam** men uchun bu olamning chirogʻi.
- A) oʻrmon podshosi    B) zangori kema

C) yaylov bahodirlari    D) qalbim quyoshi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

10. Berilgan tasviriy ifodalarning mazmuniga mosini topib moslashtiring. (qoʻllash)

1	Millionlar oʻyini	a)	kitob
2	Bilim bulogʻi	b)	qor
3	Kumush choyshab	c)	rassom
4	Moʻyqalam sohibi	d)	futbol

Javob: 1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

10-SAVOL

**1. Berilgan qaysi gaplarda undalma ishtirok etgan? (qo‘llash)**

- 1) Amirzodam, har daqiqa g‘animat.
  - 2) Odam ikki marta yashamaydi.
  - 3) Mir Alisher Navoiy o‘z g‘azallarini zamonasining eng zo‘r bilimdon va mohir xattotlariga ko‘chirtirardi.
  - 4) Bugun menga bir qarashib yubormaysanmi, Otabek?
  - 5) Kitob – mening doimiy do‘stim.
- 

**2. Berilgan hukmlardan qaysi biri undalmaga xos? (qo‘llash)**

- 1) So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsa kabilarni ifodalovchi bo‘lak
  - 2) Undalma gapda kesimga tobelanib keladi
  - 3) Gapda hech qaysi bo‘lakka tobelanmaydi
  - 4) Vergul bilan ajratiladi
  - 5) Undalmaning gapdagi o‘rni qat‘iy
  - 6) Murojaat ohangi bilan aytiladi
- 

**3. Yoyiq undalmalar qatnashgan gaplarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Yurak, sensan mening sozim.
  - 2) Ey mening do‘stlarim, sizlarni anchadan beri kutayotgan edik.
  - 3) Chimxo‘rsan-da, qizim, shu ham osh yeyishmi?
  - 4) Aziz sinfdoshlar! Bu sharaflı ishga barchamiz mas‘ulmiz.
- 

**4. Uyushgan undalmalar qatnashgan gaplarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Ey mening do‘stlarim, sizlarni anchadan beri kutayotgan edik.
  - 2) Xonimlar va janoblar! Bugungi san‘at oqshomiga xush kelibsiz!
  - 3) Muhtaram otalar, onalar, sizlarga oila tinchligi hammasidan muhim.
  - 4) Yoshlik, seni kuylamagan kim?
- 

**5. Yoyiq undalmalar qatnashgan gaplarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Azizim, qizingizning baxtini birovlarning ostonasidan qidirmang!
  - 2) Aziz nabiralar, siz bilmaysiz, men o‘sha cho‘qqida quchganman zafar.
  - 3) Ilhomimning ilk mevasini – senga tutdim, ayb etma, o‘rtoq.
  - 4) Albatta, hurmatli mehmon, sizning bir iltimosingizni bajarmasak, uyat bo‘lar.
- 

**6. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undalmalarni to‘g‘ri joylashtiring. (qo‘llash)**

- 1) \_\_\_\_\_, akam armiyadan keldi.
- 2) \_\_\_\_\_, darhol jim bo‘ling.

3) \_\_\_\_\_, g‘o‘zaga ishlov berishni kuchaytiringlar!

4) \_\_\_\_\_, mening doimiy do‘stimsan.

A) kitob B) Sobir C) o‘quvchilar D) paxtakorlar

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**7. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undalmalarni to‘g‘ri joylashtiring. (qo‘llash)**

1) \_\_\_\_\_, sen bunchalar nega, kishanlar bilan do‘stlashding?

2) \_\_\_\_\_, yana o‘zing yaxshisan.

3) \_\_\_\_\_, senga she‘r bitdim bu kun.

4) \_\_\_\_\_, boda birla xurram et ko‘ngil uyin.

A) Ey Navoiy B) she‘rim C) ko‘ngil D) yurtim

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**8. Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan undalmalarni to‘g‘ri joylashtiring. (qo‘llash)**

1) \_\_\_\_\_, bugun do‘ppidek osh damlab qo‘yganman?

2) \_\_\_\_\_, sen bunchalar go‘zalsan.

3) \_\_\_\_\_, taxtingiz pastki oshiyonda.

4) \_\_\_\_\_, sen borsan, shaksiz, bulbul kuyin she‘rga solaman.

A) tabiat B) ona tilim C) hazratim D) dadasi

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**9. Qatorlarda berilgan qaysi gaplarda undalma ishtirok etgan? (qo‘llash)**

1) Donishmandlarning fikricha, inson jamiyatda kamol topadi.

2) Ey voiz, pastga tushgin, bu gap chiqdi qayerdan?

3) Do‘stlar, yaxshilarni avaylab-asrang!

4) Bolani bir nima chaqdi, shekilli.

5) Mirzajon aka muloyim kulumsirab qo‘ydi.

6) O‘g‘lim, qo‘zichog‘im, orom olib uxlayapti.

**10. Qatorlarda berilgan qaysi gaplarda undalma ishtirok etmagan? (qo‘llash)**

1) To‘qayda arslon bo‘ladimi, bobo?

2) Yurtimizga bahor – fasllar kelinchagi kirib kelmoqda.

3) Hamid, matematika to‘garagiga qatnashasanmi?

4) Anjuman bugun, soat beshda, boshlanadi.

5) Hoy, quyoncha, yakka o‘zing qayoqqa ketyapsan?

\_\_\_\_\_

## 11-SAVOL

**1. Berilgan javoblarning qaysi birida nutq uslublari turlari berilgan? (qo‘llash)**

1) Badiiy



- 2) Ilmiy
- 3) Kengaytirilgan
- 4) Rasmiy
- 5) So‘zlashuv
- 6) Uyushiq bo‘laklar
- 7) Publitsistik
- 8) Undalma

**2. So‘zlashuv uslubiga xos xususiyatlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Nutq dialog shaklida bo‘ladi.
- 2) So‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi.
- 3) Uslubiy bo‘yoqdor va ko‘chma ma’noli so‘zlar qo‘llanadi.
- 4) Sodda gaplar, to‘liqsiz gaplardan foydalaniladi.
- 5) Radio, televideniya ko‘proq foydalaniladi.
- 6) Uyda, ko‘chada, insonlarning o‘zaro muloqotida qo‘llaniladi.
- 7) Aralash uslub deb ham ataladi.

**3. Badiiy uslubga xos xususiyatlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Aralash uslub deb ham ataladi.
- 2) Sodda gaplar, to‘liqsiz gaplardan foydalaniladi.
- 3) Targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda qo‘llaniladi.
- 4) Uslubiy bo‘yoqdor va ko‘chma ma’noli so‘zlar qo‘llanadi.
- 5) Voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiradi.
- 6) Qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli tilda, qat’iy qabul qilingan shaklda tuziladi.
- 7) Tinglovchiga estetik ta’sir etuvchi uslub hisoblanadi.

**4. Berilgan matnlarning qaysi uslubga tegishli ekanligini aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Darhaqiqat, kelajagimiz bunyodkori bo‘lgan yosh avlod kompyuter bilan tillashib, o‘zlari yaratgan texnologik dasturlar orqali iqtidorlarini namoyish etayotirlar.
- 2) Kompyuter – murakkab qurilmaga ega bo‘lgan elektron hisoblash mashinasi
- 3) Kompyuter nimagadir yaxshi ishlaymadi, usta chaqirmasak bo‘lmaydi, shekilli.
- 4) Kompyuter klavishlari o‘z-o‘zidan bosilib, monitorda so‘zlar paydo bo‘layotganini ko‘rgan Anvar avvaliga turgan joyida qotib qoldi, so‘ng ko‘zlari olayib, baqirganicha tashqariga otildi.
- 5) Masofadan ish olib borishim uchun idoradagi kompyuterni shartnoma asosida bir oy muddatga uyga olib ketishimga ruxsat berishingizni so‘rayman.

A) badiiy uslub    B) ilmiy uslub    C) rasmiy uslub

D) so‘zlashuv uslubi    E) publitsistik uslub

1		2		3		4		5	
---	--	---	--	---	--	---	--	---	--

**5. Berilgan matnlarning qaysi uslubga tegishli ekanligini aniqlang. (qo'llash)**

- 1) Quyosh – o'zidagi termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug'lik va issiqlik tarqatuvchi ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritkich
  - 2) Quyosh deysanmi, bolam? U bizdan rosaaa uzoqda joylashgan.
  - 3) Eng kichik zarradan Yupitergacha,  
O'zing murabbiysan xabar ber, Quyosh...
- A) badiiy uslub    B) ilmiy uslub    C) rasmiy uslub  
D) so'zlashuv uslubi    E) publitsistik uslub

1		2		3	
---	--	---	--	---	--

**6. Berilgan so'z birikmalarini qaysi uslubga xosligi bo'yicha tasniflang. (qo'llash)**

- 1) Ijodkor yoshlar
- 2) Boshidan qolmoq
- 3) Tajriba asosida
- 4) Quyida imzo chekuvchilar..
- 5) Qaynash nuqtasi
- 6) Yillar armoni
- 7) Xolaginasini girgitton
- 8) Quyoshli yurt
- 9) Zimmasiga yuklatilmoq
- 10) Islohotlar samarasi

- A) badiiy uslub    B) ilmiy uslub    C) rasmiy uslub  
D) so'zlashuv uslubi    E) publitsistik uslub

A) \_\_\_\_\_ B) \_\_\_\_\_ C) \_\_\_\_\_ D) \_\_\_\_\_ E) \_\_\_\_\_

**7. So'zlashuv uslubiga xos bo'lgan birliklar berilgan javoblarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) Yomon bo'lsin, deptimi?
- 2) Ko'zlari jiqqa yosh
- 3) Xolang qoqindiq
- 4) Eb-ey
- 5) Atmosfera bosimi
- 6) Farazga ko'ra
- 7) Opkel

**8. Badiiy uslubga xos bo'lgan birliklar berilgan javoblarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) Fasllar kelinchagi
- 2) Yillar armoni

- 3) Zimmasiga yuklatilmoq
- 4) O‘zizgi ja bilimdon sanavorasizki.....
- 5) Tavallud topmoq
- 6) Zarrin nurlar
- 7) Mutaxassislarning fikricha...

9. *Hayot – ajoyib o‘qituvchi: insho yozdiradi, o‘zingga tekshirtiradi, bahoni esa boshqalar qo‘yadi. U hech kimga yo unvon, yo guvohnoma bermaydi. .... (Omon Matjon)*

**Berilgan matn qaysi uslubga xos? (qo‘llash)**

- 1) Ilmiy uslub
- 2) Badiiy uslub
- 3) Rasmiy uslub
- 4) Publitsistik uslub
- 5) So‘zlashuv uslubi

10. **Berilgan gaplarni qaysi uslubga xosligi bo‘yicha tasniflang. (qo‘llash)**

- 1) – Bizziyam apketing, - dedi qo‘l siltab, Mehri.
  - 2) Osmonda rang-barang kamalakning yoyi ko‘rindi.
  - 3) Kim birovga chuqur qazisa, unga o‘zi yiqiladi.
  - 4) Hammasi ham mayli-ya, bolam, burnog‘i yilgi ish sira esidan chiqmadi.
- A) badiiy uslub                      B) so‘zlashuv uslubi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

## 12-SAVOL

1. **Rasmiy uslubga xos xususiyatlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan hujjatlar yoziladigan uslub
- 2) Ijtimoiy hayotimizdagi eng dolzarb masalalarni barchaga tushunarli, ta’sirchan shaklda, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodalaydi
- 3) Qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli tilda, qat’iy qabul qilingan shaklda tuziladi.
- 4) Uslubiy bo‘yoqdor va ko‘chma ma’noli so‘zlar qo‘llanadi
- 5) Ayrim hollarda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan qisqartma so‘zlar ham ishlatiladi
- 6) Targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda qo‘llaniladi
- 7) Ariza, tilxat, taklifnoma, tarjimayi hol shu uslubda yoziladi

2. **Ilmiy uslubga xos xususiyatlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Ilm-fan sohasida qo‘llanuvchi nutq uslubi
- 2) Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan hujjatlar yoziladigan uslub

- 3) Uslubiy bo‘yoqdor va ko‘chma ma’noli so‘zlar qo‘llanadi
- 4) Daliliy ma’lumotlar asosida chiqarilgan ta’rif-qoidalarga ega
- 5) Fanning ma’lum sohasiga doir atamalar qo‘llanadi
- 6) Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llanuvchi uslub
- 7) Fikr aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon etiladi

---

**3. Publitsistik uslubga xos xususiyatlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llanuvchi uslub
- 2) Targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishda qo‘llaniladi.
- 3) Ijtimoiy hayotimizdagi eng dolzarb masalalarni barchaga tushunarli, ta’sirchan shaklda, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda ifodalaydi
- 4) Nutq dialog shaklida bo‘ladi.
- 5) Ommaviy axborot vositalari uslubi
- 6) Og‘zaki va yozma ko‘rinishlari mavjud.
- 7) Voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali ifodalaydi.

---

**4. Ilmiy uslubga xos bo‘lgan birliklar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Tajriba asosida..
- 2) Zafar quchmoq
- 3) Atmosfera bosimi
- 4) Zimmasiga yuklatilmoq
- 5) O‘q ildiz
- 6) Jinoiy to‘da
- 7) Qo‘shma gap
- 8) Yuksak orzular

---

**5. Rasmiy uslubga xos bo‘lgan birliklar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Quyida imzo chekuvchilar..
- 2) Yeb tashlamoq
- 3) Qaynash nuqtasi
- 4) Islohotlar samarasi
- 5) Zimmasiga yuklatilmoq
- 6) Fikr-mulohaza bildirdi
- 7) Bu yerdan surmoq
- 8) Inobatga olinsin

- 
6. *Men, Toshkent shahar 2-Qorasuv dahasi 214-uy 5-xonadonda yashovchi Ahmad Ismoilovich Bahodirov, yon qo‘shnim Naim Abdullayevich Qahhorovga*

*shaharning 7-aloqa bo'limidan mening nomimga kelgan pochta jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.*

**Berilgan matn qaysi uslubga xos? (qo'llash)**

- 1) Ilmiy uslub
- 2) Badiiy uslub
- 3) Rasmiy uslub
- 4) Publitsistik uslub
- 5) So'zlashuv uslubi

---

7. *Xaridorlar muayyan tovarni sotib olish uchun o'zaro raqobat qilishadi. Bunday raqobat, ayniqsa, tovarning taklif miqdori unga bo'lgan talab miqdoridan kam bo'lganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Bozorda tovarning kam miqdorda taklif etilishi tovar taqchilligini yuzaga keltiradi. ("Iqtisodiy bilim asoslari" kitobidan)*

**Berilgan matn qaysi uslubga xos? (qo'llash)**

- 1) Ilmiy uslub
- 2) Badiiy uslub
- 3) Rasmiy uslub
- 4) Publitsistik uslub
- 5) So'zlashuv uslubi

---

8. *Mashhur Maugli haqidagi asarni eslaysizmi? Uning muallifi ingliz shoiri va yozuvchisi Redyard Kipling Nobel mukofotining adabiyot yo'nalishi bo'yicha eng yosh sovrindori bo'lgan. U 1907-yilda 42 yoshida "kuzatuvchanlik, yorqin tasavvur, g'oyalar yetukligi va buyuk iste'dodi" uchun ushbu nufuzli mukofotga munosib ko'rilgan.*

**Berilgan matn qaysi uslubga xos? (qo'llash)**

- 1) Ilmiy uslub
- 2) Badiiy uslub
- 3) Rasmiy uslub
- 4) Publitsistik uslub
- 5) So'zlashuv uslubi

---

9. **Nutqiy uslublarning hammasida erkin qo'llanadigan til birliklari, ya'ni betaraf so'zlar berilgan qatorlarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) O'qimoq
- 2) Kitob
- 3) Nazar soldi
- 4) Uy

- 5) Kichik
- 6) Tanovul qildi
- 7) Kosinus

**10. Berilgan gaplarning qaysi nutq uslubiga oid ekanligini aniqlang. (qo'llash)**

- 1) Voy, men o'lay seni tanimay!
- 2) Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash'a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo'lib, ko'nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to'lqinlarini aks ettirardi.
- 3) Lochin – yirtqich qushlar turkumining lochinsimonlar oilasiga mansub qush. 20dan ortiq turi ma'lum.
- 4) Ogohlik – davr talabi.

- A) badiiy uslub    B) ilmiy uslub    C) rasmiy uslub  
 D) so'zlashuv uslubi    E) publitsistik uslub

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**13-SAVOL**

**1. Gaplarda tushirib qoldirilgan ajratilgan bo'laklarni o'z o'rniga qo'yib moslashtiring. (qo'llash)**

- 1) Bog'chadagi do'stimni - \_\_\_\_\_ uchratib qoldim.
- 2) Chindan ham, bomba ancha nariga - \_\_\_\_\_ borib tushdi.
- 3) Ovqatdan so'ng ayvonda, \_\_\_\_\_, yonboshlab suhbatlashdik.
- 4) Lingvistika - \_\_\_\_\_ mening sevimli fanim hisoblanadi.

- A) o'rmonzorga    B) Qodirjonni    C) tilshunoslik    D) xontaxta atrofida

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**2. Gaplarda tushirib qoldirilgan ajratilgan bo'laklarni o'z o'rniga qo'yib moslashtiring. (qo'llash)**

- 1) Dadam harsillagancha narigi tomonga - \_\_\_\_\_ tushdi.
- 2) Unda, \_\_\_\_\_, qiziqarli kitoblar ko'p.
- 3) Men direktordan, \_\_\_\_\_, ruxsat oldim.
- 4) U frontda, \_\_\_\_\_, halok bo'ldi.

- A) Halimning ukasida    B) pastga  
 C) Adham A'zamovichdan    D) Leningrad ostonasida

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**3. Gaplarda tushirib qoldirilgan ajratilgan bo'laklarni o'z o'rniga qo'yib moslashtiring. (qo'llash)**

- 1) Shu payt Kumushbibi - \_\_\_\_\_ kirib keldi.
- 2) Shu farzandimni, \_\_\_\_\_, el ardog'ida bo'lishini xohlayman.
- 3) O'g'lim, \_\_\_\_\_, orom olib uxlayapti.
- 4) Biz Vatanimizni - \_\_\_\_\_ har qanday yovuz kuchlardan asrashimiz kerak.

- A) onamizni                      B) najot farishtasi  
 C) qo'zichog'im      D) ko'zim qorasini

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**4. Ajratilgan bo'laklar yozuvda qanday tinish belgilar bilan ajratiladi? (qo'llash)**

- 1) Vergul
- 2) Tire
- 3) Ikki nuqta
- 4) So'roq belgisi
- 5) Qavs
- 6) Nuqta
- 7) Undov belgisi
- 8) Qo'shtirnoq

**5. Berilgan gaplarni raqamlab ko'rsatilgan bandlar bilan moslashtiring. (qo'llash)**

1	O'zini anglash hamda fikrlash hamma odamlarga xosdir	Uyushiq bo'lakli gap  Ajratilgan bo'lakli gap
2	Ahmadjon, boyagi bola, men bilan boradi.	
3	Otam – Rustam Jo'rayev – maktabda biologiyadan dars beradilar.	
4	Bog'da anor, olma, nok kabi mevali daraxtlar o'sadi.	

a)			b)		
----	--	--	----	--	--

**6. Berilgan gaplarni raqamlab ko'rsatilgan bandlar bilan moslashtiring. (qo'llash)**

1	Shu bilan Navro'zda, 21-martda, ko'rishamiz.	Undalmali gap  Ajratilgan bo'lakli gap
2	So'yla, ko'zgujon, haqiqatni et bayon?	
3	O'quvchilar, dam olish kunini ko'ngilli o'tkazinglar.	

4	Xalqaro savdo yo‘li – Buyuk ipak yo‘li temuriylar davrida juda serqatnov bo‘lgan.	
---	---	--

a)			b)		
----	--	--	----	--	--

**7. Berilgan gaplarni raqamlab ko‘rsatilgan bandlar bilan moslashtiring. (qo‘llash)**

1	Otam - Ilyos Tohirov zavodda ishchi edi.	a) Ajratilgan bo‘lakli gap
2	Sayyohlar Toshkentda, Buxoroda bo‘lishdi.	b) Uyushiq bo‘lakli gap
3	U dam hazil bilan, dam jiddiy so‘rardi.	
4	Hu ana shu joyda, taxta ko‘prikning ostida, kichik bir buloq bor.	

a)			b)		
----	--	--	----	--	--

**8. Ajratilgan bo‘lak ishtirok etgan gaplarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Axir uning, Vohidning, o‘ziga yarasha yigitlik g‘ururi bor-ku!
- 2) Sizga, o‘rta bo‘yli qizga, atlas ko‘ylak juda yarashibdi.
- 3) Saida goh kulib, goh afsuslanib gapirib berdi.
- 4) Xatni uning o‘ziga, Muqaddasga, bering.
- 5) Buzoq, echki, qo‘y boqib yurgan bolalar uylariga tarqalishdi.
- 6) Men, Raxmatov Raxmatilla, Buxoro shahrida tug‘ilganman.
- 7) Inson go‘zalligining asosi uning chiroyli xulqidir.

**9. Ajratilgan bo‘lak ishtirok etmagan gaplarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Yaxshilik qilish qanchalik qiyin bo‘lsa, tubanlikka yuz tutish shunchalar oson.
- 2) Bugun sizni yana, ikkinchi marta, kechirishdi.
- 3) Anjuman bugun, soat beshda, boshlanadi.
- 4) Bilim mehnat bilan, tilak g‘ayrat bilan go‘zal.
- 5) Do‘stlar, ona ulug‘ va mo‘tabar zot sanaladi.
- 6) Nafisa o‘qishni davom ettirishga qiynaldi.
- 7) Allaqanday qo‘rquv – jur‘atsizlik uni tanqid qilishdan to‘sar edi.

**10. Gaplarda tushirib qoldirilgan ajratilgan bo‘laklarni o‘z o‘rniga qo‘yib moslashtiring. (qo‘llash)**

- 1) Osmonning bir burchagida, \_\_\_\_\_, oq bulut parchasi turardi.
- 2) Bu dugonamning, \_\_\_\_\_, ro‘moli.
- 3) Ikki ovsin – \_\_\_\_\_ - birga o‘tirishibdi.
- 4) Bu ulug‘vor anjumanga, \_\_\_\_\_, xalq shoirlari taklif etigan.



- A) ufqqa yaqin yerda      B) Feruza bilan Adolat  
C) Halimaning              D) bayramga

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

#### 14-SAVOL

1. **Gaplarda tushirib qoldirilgan kiritmalarni o'z o'rniga qo'yib moslashtiring. (qo'llash)**

- 1) \_\_\_\_\_, dardimizni tushunadigan odam topildi.  
2) \_\_\_\_\_, insonning qalbi go'zal bo'lishi kerak.  
3) \_\_\_\_\_, besh qo'l barobar emas.  
4) \_\_\_\_\_, biz ulug' odamlarning farzandlarimiz.

- A) afsuski      B) avvalo      C) xayriyat      D) xullas

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

2. **Ishonch ma'nosini ifodalovchi kirish so'zlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) xayriyat  
2) afsus  
3) albatta  
4) shubhasiz  
5) shekilli  
6) ehtimol  
7) begumon  
8) demak

3. **Fikrning tartibini ifodalovchi kirish so'zlar berilgan javoblarni aniqlang. (qo'llash)**

- 1) avvalo  
2) masalan  
3) attang  
4) birinchidan  
5) nihoyat  
6) afsus  
7) avvalambor

4. **Berilgan gaplarning qaysi biriga gumon ma'nosini ifodalovchi kirish so'zlar qo'yish mumkin. (qo'llash)**

- 1) \_\_\_\_\_, bu onasidan qolgan yagona esdalik.

- 2) Alijon, \_\_\_\_\_, elektrni o‘chirgan ekan.
- 3) Onajonim, \_\_\_\_\_, bir kun men ham shoir bo‘larman.
- 4) \_\_\_\_\_, u yolg‘on gapiryapti.
- 5) \_\_\_\_\_, boylıklarimizdan oqilona foydalanishimiz kerak.

**5. Gaplarda tushirib qoldirilgan kiritmalarni o‘z o‘rniga qo‘yib moslashtiring. (qo‘llash)**

1	Bu jang, _____, olti oy davom etgan.	a)	avvalo
2	Bayram bilan, _____, ustozlarimizni tabriklaymiz.	b)	demak
3	_____, jadidlar erk uchun kurashgan.	c)	ochig‘i
4	_____, fikringiz menga ma‘qul emas.	d)	chamasi

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**6. Kiritmalar ishtirok etgan qatorlarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Donishmandning fikricha, inson jamiyatda kamol topadi.
- 2) Musobaqalarda Alijon (siz uni taniysiz) peshqadamlik qilmoqda.
- 3) To‘xtanglar, bolalar, sal nafasimizni rostlaylik!
- 4) Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz, men ham to‘ti bo‘lib qolaman.
- 5) Ey voiz, pastga tush, bu gap chiqdi qayerdan?
- 6) Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasida (bir vaqtlar bu yerdan ulug‘ bobomiz koinot sirlarini ochgan) ta‘mirlash ishlari olib borilmoqda.
- 7) Yurak, sensan mening sozim!

**7. Berilgan gaplarni raqamlab ko‘rsatilgan bandlar bilan moslashtiring. (qo‘llash)**

1	Ahmadning aytishicha, ertaga shanbalik bo‘lar ekan.	a) Kirish so‘z b) Kirish birikma c) Kirish gap
2	Balki, biz g‘olib bo‘larmiz	
3	“O‘tgan kunlar” (siz bu romanni o‘qigansiz) Abdulla Qodiriyning shoh asari hisoblanadi.	
4	Dunyoda hech bir xalq to‘g‘ri kelolmas, mening bilishimcha, sening elingga.	
5	Biz qishloqqa (bu safar menga Maktuba ham hamroh bo‘ldi) ertasiga kechqurun bordik.	

6	Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.	
---	---	--

a) \_\_\_\_\_ b) \_\_\_\_\_ c) \_\_\_\_\_

**8. Gaplarda tushirib qoldirilgan kiritmalarni o‘z o‘rniga qo‘yib, moslashtiring. (qo‘llash)**

- 1) Kecha bu gapni Ahmadga ham ( \_\_\_\_\_ ) aytgan edim.
  - 2) Qabulxona ( \_\_\_\_\_ ) qorong‘i edi.
  - 3) Biz ( \_\_\_\_\_ ) ertaga sayohatga boramiz.
  - 4) Saltanatni bitiruv kechasida ( \_\_\_\_\_ ) ko‘rdim.
- A) bu yer ilgari katta boyning mehmonxonasi bo‘lsa kerak  
 B) bu tadbirga hammamiz yig‘ilgan edik  
 C) sinf rahbarimiz aytdi  
 D) sen uni taniysan

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**9. Gaplarda tushirib qoldirilgan kiritmalarni o‘z o‘rniga qo‘yib, moslashtiring. (qo‘llash)**

- 1) \_\_\_\_\_, ko‘ngilning kishan bilan do‘stligi fojia sanaladi.
  - 2) Sifat fe‘lga bog‘lansa ( \_\_\_\_\_ ), hol vazifasida qo‘llanadi.
  - 3) Bolani bir nima chaqdi, \_\_\_\_\_.
  - 4) \_\_\_\_\_, u yolg‘on gapiryapti.
- A) bu qoidani yuz marta aytganman      C) aftidan  
 B) Cho‘lponning she‘rida yozilishicha      D) shekilli

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**10. *Inson bor ekan, u doimo biror-bir maqsadga, orzuga intilib yashaydi. Mening ham o‘z orzu-umidlarim, oldimga qo‘ygan maqsadim bor. Eng avvalo, men maktabni yaxshi baholarga bitirishim, albatta, yaxshi o‘qishim, odobli bo‘lishim, jamoat ishlarida faollik ko‘rsatishim kerak. Keyin esa o‘zimga yoqqan me‘morchilik kasbi sirlarini o‘rganmoqchiman.***

**Berilgan matnda nechta o‘rinda kiritmalar qatnashgan? (qo‘llash)**

- 1) ikki o‘rinda
- 2) uch o‘rinda
- 3) to‘rt o‘rinda
- 4) matnda kiritma ishtirok etmagan

\_\_\_\_\_

## 15-SAVOL

### 1. Javoblarning qaysi birida uyushiq bo'laklar ishtirok etgan? (qo'llash)

- 1) Bog'imizdagi o'rik, olma, shaftolilar gulga kirmoqda.
- 2) Sayyohlar Toshkent va Buxoroda bo'lishdi.
- 3) Lingvistika – tilshunoslik mening sevimli fanim hisoblanadi.
- 4) Kecha akam samolyotda Farg'onadan Toshkentga keldi.
- 5) Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.
- 6) Dengiz bo'yi chiroyli, havosi toza, jannatmisol joylar ekan.
- 7) Tadbirkorlar va ishbilarmonlar uchun ko'plab yengilliklar berilmoqda.

### 2. Qaysi qatordagi gaplarda to'ldiruvchi uyushgan? (qo'llash)

- 1) Men onam, otam va opamga sovg'a oldim.
- 2) Yoqimli, orombaxsh shamol esmoqda.
- 3) Kitob va daftarlaringizni olib keldim.
- 4) Bu vazifa mas'uliyatli va sharaflidir.

### 3. Qaysi qatordagi gaplarda hol uyushgan? (qo'llash)

- 1) U kecha ertalab biznikiga keldi.
- 2) Ukam dam hazil bilan, dam jiddiy so'radi.
- 3) Tomlardan, irigan devorlardan bug' ko'tarila boshladi.
- 4) Bugun ertalab yomg'ir yog'di.

### 4. Qaysi qatordagi gaplarda aniqlovchi uyushgan? (qo'llash)

- 1) Bog'imizda oq, qizil, pushti gullar qiyg'os ochilib yotibdi.
- 2) Bu vazifa mas'uliyatli va sharaflidir.
- 3) Ozodaning va Shoironing ukalari bog'cha tarviyalanuvchilaridir.
- 4) Qizil ruchka va qora qalam oldim.

### 5. Moslashtiring. (qo'llash)

1	Tohir, Gulnoza va men kutubxonaga bordik.	a)	Aniqlovchi uyushgan
2	Serchang, sershovqin ko'chalarda odamlar daryoday oqib borar edi.	b)	Kesim uyushgan
3	Biz Samarqand, Xiva va Buxoroga sayohatga chiqdik.	c)	To'ldiruvchi uyushgan
4	Bu vazifa mas'uliyatli va sharaflidir.	d)	Hol uyushgan

5	Mehnat yoshlarga ham, keksalarga ham obro‘ olib keladi.	e)	Ega uyushgan
---	---	----	--------------

1		2		3		4		5	
---	--	---	--	---	--	---	--	---	--

### 6. Moslashtiring. (qo‘llash)

1	Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi.	a)	Kesim uyushgan
2	Bog‘chada yosh qizchalar va o‘g‘il bolalar davra qurib o‘ynashmoqda.	b)	Ega uyushgan
3	Siz a‘lochi va jamoatchisiz.	c)	To‘ldiruvchi uyushgan
4	Daryo goh shovqin solib, goh tinch oqar edi.	d)	Aniqlovchi uyushgan
5	Bolalar ona va Vatan haqida she‘r aytishdi.	e)	Hol uyushgan

1		2		3		4		5	
---	--	---	--	---	--	---	--	---	--

### 7. Umumlashtiruvchi so‘z qatnashgan gaplarni aniqlang. (qo‘llash)

- 1) Yig‘ilishda hech kim: na Sa‘dulla, na Akbarali bu haqida gapirmadilar.
- 2) Hasanali kunlarni tomoqsiz, tunlarni uyqusiz kechira boshladi.
- 3) Shu hovli-joy, mana bu daraxtlar – barchasi meniki.
- 4) U hayotda hammasini ko‘rdi: quvonchni, musibatni, sadoqatni, xiyonatni.
- 5) Tiniq suvlar, ko‘m-ko‘k daraxtlar shoirning ko‘nglini to‘lqinlantirar edi.
- 6) Dasturxondagi mevalar: olma, anor, uzum va noklar o‘z bog‘imizdan edi.

### 8. Qaysi qatordagi gaplarda ega uyushgan? (qo‘llash)

- 1) O‘g‘lim, qizim orom olib uxlayapti.
- 2) Navro‘zda, Yangi yilda uchrashdik.
- 3) Boyagi yigitning va Avazning qo‘li gul ekan,
- 4) Shu payt hovliga Davron aka bilan Iskandarov kirib keldi.
- 5) Goh oyim, goh buvim kelib turadi.
- 6) Vazmin va xushmuomala qariya hammaga yoqadi.
- 7) Sa‘va, mayna, bulbullar, qanot qoqib kelinglar!

### 9. Berilgan gaplarni tushirib qoldirilgan umumlashtiruvchi bo‘laklar bilan moslashtirib to‘ldiring. (qo‘llash)

- 1) Qo'zg'aldi \_\_\_\_\_ : rus, tojik, o'zbek.
  - 2) \_\_\_\_\_ kelmadi: na Qumri, na Sobir, na Anvar.
  - 3) Uydagi \_\_\_\_\_ : divan, javon, stol va stullar juda zich joylashtirilgan edi.
  - 4) Bog'da husayni, charos, kishmish – turli \_\_\_\_\_ bor edi.
- A) uzum ishkamlar      C) butun xalq  
B) hech kim              D) mebellar

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**10. Berilgan gaplarni tushirib qoldirilgan umumlashtiruvchi bo'laklar bilan moslashtirib to'ldiring. (qo'llash)**

- 1) \_\_\_\_\_ : Abdulla Avloniy, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabilardan xalqimizga ulkan va boy meros qoldi.
  - 2) Ish bizni uch \_\_\_\_\_ : zerikish, qusur, muhtojlikdan xalos etadi.
  - 3) Dasturxondagi \_\_\_\_\_ : olma, anor, uzum va noklar o'z bog'imizdan edi.
  - 4) \_\_\_\_\_ : na musiqa, na turli o'yinlar uni ovuta olmas edi.
- A) hech narsa              C) illatdan  
B) mevalar                 D) jadid allomalari

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**16-SAVOL**

**1. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bo'yicha guruhlang. (qo'llash)**

1	Dunyoda onadan aziz zot bormi?	a)	darak gap
2	Dunyodagi hamma onalar sizga o'xshasa.	b)	so'roq gap
3	Dunyoda onadan aziz zot yo'q.	c)	buyruq gap
4	Onalarimizni avaylaylik.	d)	istak gap

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**2. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari bo'yicha guruhlang. (qo'llash)**

1	Ko'ngli tilagan murodiga yetsa kishi...	a)	darak gap
2	Avval o'yla, keyin so'yla.	b)	so'roq gap
3	Avaz boshlagan ishini tugatib qo'ydi.	c)	buyruq gap
4	Ko'chatlarga kim suv quydi?	d)	istak gap

1 \_\_\_\_\_ 2 \_\_\_\_\_ 3 \_\_\_\_\_ 4 \_\_\_\_\_

**3. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha guruhlang. (qo‘llash)**

- 1) Bu yerning ob-havosi, iqlimi, sharoiti yaxshi edi.
- 2) So‘nggi bor uni kim ko‘rgan?
- 3) Hamma imtihonga tayyormi?
- 4) Men onamni bayram bilan tabrikladim.

Darak gaplar		So‘roq gaplar	
--------------	--	---------------	--

**4. Qaysi qatorda so‘roq gaplarni hosil qiluvchi vositalar berilgan? (qo‘llash)**

- 1) So‘roq yuklamalari
  - 2) Kelishik qo‘shimchalari
  - 3) Shaxs-son qo‘shimchalari
  - 4) So‘roq olmoshlari
  - 5) So‘roq ohangi
  - 6) Kishilik olmoshlari
- \_\_\_\_\_

**5. Javoblarning qaysi birida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari berilgan? (qo‘llash)**

- 1) Darak gap
  - 2) Uyushiq bo‘lakli gap
  - 3) Buyruq gap
  - 4) So‘roq gap
  - 5) Undalma
  - 6) Ajratilgan bo‘lakli gap
  - 7) Istak gap
- \_\_\_\_\_

**6. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha guruhlang. (qo‘llash)**

- 1) Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?
- 2) Dam olish kuni sayohatga boramiz.
- 3) Bu daraxtni kesishga kim ruxsat berdi?
- 4) Bizga sport maydoni qurib berishdi.

Darak gaplar		So‘roq gaplar	
--------------	--	---------------	--

**7. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha guruhlang. (qo‘llash)**

- 1) O‘z qilmishingizdan uyalmaysizmi?

- 2) Tinchlik tufayli yurt obod bo‘lmoqda.
- 3) Mening akam zavodda muhandis bo‘lib ishlaydi.
- 4) Shu gapni besh marta takrorladingmi?

Darak gaplar		So‘roq gaplar	
--------------	--	---------------	--

**8. Faqat so‘roq olmoshlari bilan hosil qilingan so‘roq gaplar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Bolalar qayerda futbol o‘ynashmoqda?
- 2) Umringda necha marta asal yegansan?
- 3) Uyga vazifani bajardingmi?
- 4) Vaziyat qachon yaxshilanadi?
- 5) Uchrashuv qanday o‘tdi?
- 6) Po‘lat xatni kecha oldimi?

\_\_\_\_\_

**9. Faqat so‘roq yuklamalari bilan hosil qilingan so‘roq gaplar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Bobur haqida nimalarni bilasiz?
- 2) Sen qaysi maktabda o‘qiyasan?
- 3) Maksim o‘zbek tilida yozilgan kitoblarni ko‘p o‘qiydimi?
- 4) Dunyoda onadan aziz zot bormi?

\_\_\_\_\_

**10. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha guruhlang. (qo‘llash)**

- 1) Oddiy haqiqatni bilmaysizmi?
- 2) Darsdan keyin to‘garaklarga boraman.
- 3) Ota-onamiz bizdan xursand.
- 4) Qaysi fanlarni chuqur o‘zlashtiryapsiz?

Darak gaplar		So‘roq gaplar	
--------------	--	---------------	--

**17-SAVOL**

**1. Berilgan gaplarni gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari bo‘yicha guruhlang. (qo‘llash)**

- 1) Tez yetib kel.
- 2) Seni ilgari ham ogohlantirganman.
- 3) Onalarimizni avaylaylik.
- 4) Osmonni qora bulut qoplamoqda.



Buyruq gaplar		Darak gaplar	
---------------	--	--------------	--

**2. Tushirib qoldirilgan so‘roq olmoshlarini o‘z o‘rniga qo‘yib, so‘roq gaplar tuzing. (qo‘llash)**

- 1) Biz \_\_\_\_\_ ta‘tilga chiqamiz?
  - 2) Karimjon, senga \_\_\_\_\_ bo‘ldi?
  - 3) Singling \_\_\_\_\_ tahsil oladi?
  - 4) She‘rni \_\_\_\_\_ aytib berding?
- A) qanday      B) qachon      C) qayerda      D) nima

**3. Faqat istak gaplar berilgan qatorlarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Qani endi, institutga o‘qishga kirsam.
  - 2) Oling qo‘lingizni.
  - 3) Toshkentga borib, Mustaqillik maydonini ko‘rsam.
  - 4) Bu oddiy haqiqatni kim bilmaydi?
  - 5) Voy, qomatingdan onang o‘rgilsin!
- \_\_\_\_\_

**4. Faqat buyruq gaplar berilgan qatorlarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Ishga qabul qilinsin.
  - 2) Bunday go‘zal o‘lka dunyoda yo‘q.
  - 3) O‘z qilmishingizdan uyalmaysizmi?
  - 4) Qani, qo‘lni bering, bir tabriklay qo‘yay.
  - 5) Kecha bu gapni Ahmadga aytgan edim.
  - 6) Ko‘p andisha qilmang, yuring!
- \_\_\_\_\_

**5. Moslashtiring. (qo‘llash)**

1	So‘zlovchining xohish-istagini ifodalaydigan gaplar	a)	darak gaplar
2	Xabar mazmunini bildiradigan gaplar	b)	istak gaplar
3	So‘zlovchiga noma‘lum bo‘lgan voqea-hodisa axborot olish maqsadida qo‘llanadigan gaplar	c)	buyruq gaplar
4	Tinglovchini ma‘lum bir harakatni bajarish yoki bajarmaslikka undash, da‘vat etish maqsadida qo‘llanadigan gaplar	d)	so‘roq gaplar

1		2		3		4	
---	--	---	--	---	--	---	--

**6. Ritorik so‘roq gaplar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Bunday go‘zal o‘lka bormi dunyoda?
  - 2) Qadamlaringizga hasanot!
  - 3) Bu oddiy haqiqatni kim bilmaydi?
  - 4) O‘zi tug‘ilgan yurtni sevmaslik mumkinmi?
  - 5) Inson ilm va mehnat bilan baxtli bo‘ladi.
  - 6) Bu daraxtni kesishga kim jur‘at qila oladi?
  - 7) Onani sevmaydigan odam bormi dunyoda?
- 

**7. Faqat darak gaplar berilgan javoblarni aniqlang. (qo‘llash)**

- 1) Yozuvda istak gaplarning oxiriga nuqta qo‘yiladi.
  - 2) Bahorning iliq havosi odamga xush yoqadi.
  - 3) Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?
  - 4) Ertaga she‘rni yodlab keling.
  - 5) Har bir ishda ehtiyotkorlik va ziyraklikni qo‘ldan bermaslik kerak.
  - 6) Kelajakda yaxshi shifokor bo‘lsam.
  - 7) Tabiat bizning onamizdir.
- 

**8. – Oshga! –**

*Deya bir mahal*

*Ovoz berdi xolamiz.*

*Uyat! Ovqat yeyishga*

*Endi qanday boramiz? (S.Inoyatov)*

**Ushbu she‘riy parchada gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qanday turlari ishtirok etgan. (qo‘llash)**

- 1) Darak gap
  - 2) Buyruq gap
  - 3) So‘roq gap
  - 4) Istak gap
- 

**9. Vatan! Taqdiringdan toshi bemiqdor,**

*Aytgin, fido bo‘lay qaysi bir toshga?*

*Birovning do‘stlar-u xorijlari bor,*

*Mening hech kimim yo‘q – o‘zingdan boshqa.*

**Ushbu she'riy parchada gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlari ishtirok etgan. (qo'llash)**

- 1) Darak gap
  - 2) Buyruq gap
  - 3) So'roq gap
  - 4) Istak gap
- 

**10. *Baxil o'z molini asrash uchun qattiq azob chekadi. Hasadchi esa yaramas fe'li tufayli tinch yashay olmaydi. Unisi o'ziga bergan azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qilig'idan dard chekadi.***

**Berilgan parchada gapning ifoda maqsadiga ko'ra qanday turlari ishtirok etgan. (qo'llash)**

- 1) Darak gap
  - 2) Buyruq gap
  - 3) So'roq gap
  - 4) Istak gap
- 

## **18-SAVOL**

**1. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

- 1) Biroq durroj quloq solmas, yolg'onchilikni, aldashni qo'ymas edi.
- 2) Sher: "Bu gal ham Durroj meni aldayapti", - deb uni qutqarishga bormadi.
- 3) Kunlardan bir kun Durroj: "Men tuzoqqa tushdim!" – deb sherni aldadi.
- 4) Bir kuni u chindan tuzoqqa ilindi va: "Meni tutib oldilar!" – deb qattiq qichqirdi.
- 5) Sher uning aldanganini ko'rib: "Boshqa bunday ish qilma, yolg'onchidan barcha nafratlanadi", - deb nasihat qildi.

**A) Berilgan gaplarni izchillikda bog'lab, bog'lanishli matnga aylantiring. (5 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

---

**2. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

Bolalagimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo‘lardi. Erta bahorda qiyg‘os gullardi-yu, hech meva tugmasdi. Onam: “Bodom yolg‘iz bo‘lgani uchun meva qilmaydi”, - deb tushuntirardi. Shu bodom tagida supa bor edi. Kun botishi bilan onam hovliga ko‘loblatib suv separ, kun bo‘yi oftobda qizigan yer hidi supa oldidagi rayhonlar isiga qo‘shilib ajib bir tarovat taratar, atrof jim-jit bo‘lib qolar edi. (O‘tkir Hoshimov)

**A) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

**B) Matnni ixchamlashtirish uchun matnda qatnashgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (5 ball)**

---

---

**3. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

Milliy teatr - \_\_\_\_\_ oila. Ustozlar \_\_\_\_\_ mehribon edilar. Aktyorlik madaniyati, \_\_\_\_\_ tushunchalarni ilk bor hu yerda egalladik. Menda teatrga, \_\_\_\_\_ uyg‘ongan. Hamma aktyorlarning ham orzusi - \_\_\_\_\_ yaratishdir. Iste’dod qudrati \_\_\_\_\_ namoyon bo‘ladi.

- 1) bosh qahramon timsolini
- 2) ota-onaday
- 3) boshqalarga ibrat ko‘rsatish fazilati haqidagi
- 4) katta
- 5) ijodga mehr oila muhitida
- 6) kasbga muhabbat bilan

**A) Nuqtalar o‘rniga kerakli jummalarni qo‘yib, matnni kengaytirib yozing.(5 ball)**

---

---

---

---

---

---

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

---

**4. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

- 1) Boshloqlar to‘lishganda hosilni yig‘ish boshlanadi.
- 2) Terilgan bug‘doy tegirmonga yuboriladi.
- 3) Bug‘doy qishi bilan yer ostida unadi.
- 4) Bug‘doy kuzda ekiladi.
- 5) Uni ekishdan oldin yer shudgor qilinadi.
- 6) Tegirmonda bug‘doydan un qilinadi.

**A) Berilgan gaplarni izchillikda bog‘lab, bog‘lanishli matnga aylantiring. (5 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

---

**5. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

- 1) - Bor bo‘ling!
- 2) - Xirmonga Baraka. Topganingiz halol mehnatingizga yarasha bo‘lsin
- 3) – Rahmat.
- 4) – Hosil mo‘l bo‘lsa, hech kim charchamaydi.
- 5) – Hormanglar! – dedi rais ishchilarga qarab.
- 6) – Qalay, charchamayapsizlarmi?

**A) Berilgan gaplarni ketma-ketlikda bog‘lab, bog‘lanishli matnga aylantiring. (5 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

---

**6. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

- Olim, senga o‘zbek aktyorlaridan kimlar yodaqi?
- Shukur Burxonov, Razzoq Hamroyev, Hamza Umarov, Nabi Rahimov, Yoqub Ahmedov kabi mashhur san’atkorlarning mahoratiga qoyil qolaman.
- Qani, Yoqub Ahmedov ijro etgan rollarni aytib ber-chi?
- Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” spektaklida (1)\_\_\_\_\_ obrazi, (2)\_\_\_\_\_ ning “O‘tkan kunlar”ida (3)\_\_\_\_\_ obrazi, (4)\_\_\_\_\_ ning “Yulduzli tunlar”ida (5) \_\_\_\_\_ obrazlari kabi o‘nlab timsollarni yaratgan.

- 1) Pirmqul Qodirov
- 2) Alisher
- 3) Abdulla Qodiriy
- 4) Bobur
- 5) Yusufbek hoji

**A) Nuqtalar o‘rniga kerakli jumalarni qo‘yib, matnni kengaytirib yozing. (5 ball)**

- 1) \_\_\_\_\_
- 2) \_\_\_\_\_
- 3) \_\_\_\_\_
- 4) \_\_\_\_\_
- 5) \_\_\_\_\_

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

---

**7. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

- 1) U yerda Boburshoh ko‘rkam bog‘ yaratibdi.
- 2) Boburshoh qovunni yaxshi ko‘rar ekan, ammo bog‘ida qovun hosil bermabdi.
- 3) Boburmirzo Hindistonga borib, u yerning sultoni bo‘libdi.
- 4) Bog‘dagi daraxtlar hosilga kirib meva bera boshlabdi.
- 5) Bu bog‘ga turli xil meva va sabzavotlar ekishibdi.
- 6) Bir kuni unga qovun keltirishibdi va “Bog‘i Boburiy”da pishganini aytishibdi.
- 7) Shoh juda xafa bo‘libdi.
- 8) Bobur qovunning Farg‘onadan keltirilganini hididan va mazasidan bilibdi.

**A) Berilgan gaplarni ketma-ketlikda bog‘lab, bog‘lanishli matnga aylantiring. (5 ball)**

---



---



---



---



---



---



---



---



---



---

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

---

**8. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

- Anvar, allomalar deb kimlarni atash mumkin?
- Allomalar o‘z maktabini yaratgan buyuk olimlardir.
- Allomalardan kimlarni bilasan?
- Masalan, (1)\_\_\_\_\_ yulduzlar ilmining asoschilaridan.  
(2)\_\_\_\_\_ mantiqshunos olim. (3)\_\_\_\_\_ tarixchi olim.
- Tushunarli.
- Bilasanmi, qachonlardir raqamlar “algoritm” deb atalgan va (4)\_\_\_\_\_ nomi bilan bog‘liq. Abu Ali ibn Sino – (5)\_\_\_\_\_ ning “Al qonun” asarida juda ko‘p kasalliklarning paydo bo‘lish sabablari, 790dan ziyod dori-darmonlarning ro‘yxati keltirilgan ekan.

- 1) Abu Nasr Forobiy
- 2) Al-Xorazmiy
- 3) Mirzo Ulug‘bek
- 4) Avitsenna
- 5) Abu Rayhon Beruniy

**A) Nuqtalar o‘rniga kerakli jummalarni qo‘yib, matnni kengaytirib yozing. (5 ball)**

- 1) \_\_\_\_\_
- 2) \_\_\_\_\_
- 3) \_\_\_\_\_
- 4) \_\_\_\_\_
- 5) \_\_\_\_\_

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

\_\_\_\_\_

**9. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

- Qizlar, men jahon adabiyoti namoyandalari yaratgan asarlar bilan tanishmoqchiman. Qaysi yozuvchini tavsiya qilasiz?
- Men yunon yozuvchi Sofoklning asarlarini o‘qiganman. Uning (1)\_\_\_\_\_ tragediyasi hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.
- Men Hindistonning buyuk yozuvchisi (2) \_\_\_\_\_ning “Nur va soyalar” asarini o‘qidim.
- Men, asosan, gruzin yozuvchisi (3)\_\_\_\_\_, tojik shoiri (4)\_\_\_\_\_, qoraqalpoq adabiyoti asoschisi (5)\_\_\_\_\_ning asarlari bilan tanishmoqchiman.

- 1) Mirzo Tursunzoda
- 2) “Shoh Edip”
- 3) Robindranat Tagor
- 4) Nodar Dumbadze
- 5) Berdaq

**A) Nuqtalar o‘rniga kerakli jummalarni qo‘yib, matnni kengaytirib yozing. (5 ball)**

- 1) \_\_\_\_\_
- 2) \_\_\_\_\_
- 3) \_\_\_\_\_
- 4) \_\_\_\_\_
- 5) \_\_\_\_\_

**B) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

\_\_\_\_\_



**10. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

Yuzning kulib turishi unchalik qiyin ish emas. Muhimi, ko‘ngil kulib turishi kerak. Kimning ko‘ngli kulib tursa, odamlar: “Istarali ekan!”, - deyishadi. Bu “yulduzi issiq odam” degani. Men hamsuhbatlarimga ana shu saodatni tilayman. (O‘tkir Hoshimov)

**A) Matnning qo‘llanishiga ko‘ra turini aniqlang va yozing. (3 ball)**

**B) Matnda qatnashgan ko‘chma ma‘noli so‘zlarni aniqlang. (5 ball)**

**19-SAVOL**

**1. Fe‘l zamonlari bo‘yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

*Birinchiidan, sen shartnomani buzding, ikkinchiidan, ishonchimni suiiste‘mol qilding.*

**A) Matnda ishtirok etgan fe‘llarni aniqlab, ularning zamonini yozing. (6 ball)**

---

---

**B) Matnda qatnashgan fe‘llarni hozirgi va kelasi zamonda yozing. (6 ball)**

---

---

**2. Fe‘l zamonlari bo‘yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo‘llash)**

*Biz keljagi buyuk Vatanning farzandlarimiz. Biz uni sevamiz, ardoqlaymiz. Uning qudrati, shon-shuhrati, erk-u farovonligi yo‘lida fidoyilik vilan xizmat qilamiz.*

**A) Matnda ishtirok etgan fe‘llarni aniqlab, ularning zamonini yozing. (6 ball)**

---

---

**B) Matnda qatnashgan fe‘llarni hozirgi zamonda yozing. (6 ball)**

---

---

**3. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Xorazmlik ulug' alloma Najmiddin Kubro falsafiy she'rlari, ilmiy risolalari bilangina emas, Vatan himoyasi yo'lidagi qahramonligi bilan ham xalqimiz xotirasida yashab kelmoqda.*

A) Matnda ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning zamonini yozing. (6 ball)

---

---

---

B) Matnda qatnashgan fe'llarni o'tgan zamon har uchala shaxsda tuslang. (6 ball)

---

---

---

**4. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Bugun biz yoshlar bir nechta tilda gaplasha olamiz. Yurtimizda tadbirkorlik, marketing sohalari rivojlanmoqda. Bu yerda dunyoning mashhur o'quv yurtlari joylashgan.*

A) Matnda ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning zamonini yozing. (6 ball)

---

---

---

B) Matnda qatnashgan hozirgi zamondagi fe'lni –di qo'shimchali o'tgan zamon shakli bilan har uchala shaxsda tuslang. (6 ball)

---

---

---

**5. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,  
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.  
Men esam o'ylayman yotib tuproqda:  
Mana shu tuproqqa qo'shilar xokim. (Rasul Hamzatov)*

A) Parchada ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning zamonini yozing. (6 ball)

---

---

---

B) Parchada qatnashgan fe'llarni bo'lishsiz shaklda yozing (6 ball)

---

---

---

**6. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Vohidova Dilnoza 2008-yilda 1-sinfga qabul qilingan. Maktabda o'qish davomida u barcha fanlardan alo baholarga o'qimoqda, o'zini har tomonlama bilimli, harakatchan o'quvchi sifatida ko'rsatdi.*

A) Parchada ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning zamonini yozing. (6 ball)

---

---

---

B) Parchada qatnashgan fe'llarni kelasi zamonda qo'llab gaplar tuzing (6 ball)

---

---

---

**7. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Ra'no ertalab oyisiga tushini aytib beribdi:*

- *Tushimda menga yo'l-yo'l ko'ylak olib kelyapsiz.*
- *Yaxshi tush ko'ribsan, – dedi oyisi. – Demak, uyga mehmon kelyapti.*

A) Suhbat matnida ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning qaysi zamon shaklida ekanligini yozing. (6 ball)

---

---

---

B) Suhbat matnida qatnashgan fe'llarni bo'lishsiz shaklda yozing (6 ball)

---

---

---

**8. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Sportchilarimiz Osiyo va Jahon chempionatlarida, Olimpiada o'yinlarida mamlakatimiz sharafini munosib himoya qilib kelmoqdalar. Ular Vatanimiz nomini butun dunyoga yanada ko'proq tanitishga o'z hissalarini qo'shishyapti. Eng muhimi, O'zbekiston sportchilari hech kimdan hech qachon kam bo'lmagan.*

- A) Matnda ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning qaysi zamon shaklida ekanligini yozing. (6 ball)

---

---

- B) Matnda qatnashgan fe'llarni kelasi zamonda qo'llab gaplar tuzing (6 ball)

---

---

**9. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Firma rahbarlari xaridorlarni o'z mahsulotlariga qiziqtirish uchun har doim savdoning yangi usullarini izlab topadilar. XX asrning 80-yillarida AQSh ishlab chiqarish kompaniyalari do'kondan tashqarida bo'ladigan savdo tizimini tashkil etdi. Bu tizim xaridorlarga uydan chiqmasdan mahsulotlarni sotib olish uchun qulay imkoniyat yaratdi.*

- A) Matnda ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning qaysi zamon shaklida ekanligini yozing. (6 ball)

---

---

- B) Matnda qatnashgan fe'llarni hozirgi zamonda qo'llab gaplar tuzing. (6 ball)

---

---

**10. Fe'l zamonlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajaring. (qo'llash)**

*Tadbirkor ishning ko'zini biladigan kishidir. Ular qarovsiz joylarni obod qiladilar, o'zlariga ham, xalqqa ham foyda keltiradilar. Shuning uchun respublikamizda tadbirkorlikni rivojlantirishga kata e'tibor qaratilmoqda. Hukumatimiz tomonidan bir qator qonunlar, qarorlar qabul qilinmoqda.*

- A) Matnda ishtirok etgan fe'llarni aniqlab, ularning qaysi zamon shaklida ekanligini yozing. (6 ball)

---

---

B) Matnda qatnashgan fe'llarni o'tgan zamonda qo'llab gaplar tuzing. (6 ball)

---

---

---

## 20-SAVOL

### 1. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)

O'tgan zamonda bir qashshoq yigit donishmand cholning oldiga kelib:

- Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo'q, juda qiynaldim. Nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan? – debdi.

Chol: - Sen kambag'al misan? – desa, u:

- Ha, bola-chaqalarim va o'zim ochman, kiyim-kechagim yo'q, - deb zorlanibdi.

Chol:

- Xo'p, bo'lmasa, menga o'ng qo'lingni sot, necha pul beray? – desa, haligi yigit:

- Yo'q, o'ng qo'lim o'zimga kerak, sotmayman, - debdi. Shunda chol:

- Bo'lmasa, o'ng ko'zingni sot, - debdi. Yigit:

- Nega men o'ng ko'zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, - debdi.

Chol shu tarzda yigitning tana a'zolarini birma-bir sanab, ularni sotishni taklif qilibdi. Yigit “yo'q” javobini qaytaravergach, chol unga:

- Ha, oyoq-qo'ling but, to'rt muchang sog' bo'lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan? – dedi.

Kishining tan-joni sog'ligi tuman boyligi-ku. “Sog' tanda – sog'lom aql” deb bekorga aytmaganlar. Sog' bo'lsang, qanday ish bajarsang qo'lingdan keladi, kuning o'tadi, - deb javob qaytargan ekan chol.

### A) Donishmandning yigitga tana a'zolarini sotishni taklif qilishining sabablarini izohlang. Siz o'z sog'ligingizni qanday asraysiz? (8 ball)

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

### B) Matnga sarlavha qo'ying. (2 ball)

---

---

### C) Chol unga: “Ha, oyoq-qo'ling but, to'rt muchang sog' bo'lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan?” – dedi. Berilgan ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)

---

---

---

## 2. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)

O‘shanda hali bola edim. Onam mashaqqatli ish kunidan qaytib, har kech biz uchun non-osh pishirardi.

Bir kuni onam shoha-pisha kechki ovqatni tayyorladi va birozdan keyin uni non bilan birga olib kelib, otamning oldiga qo‘ydi. Mening ikki ko‘zim nonda edi. Kimdir nonning kuyganiga e‘tibor berarmikan deb kutib turdim. Lekin otam nonni indamasdan chaynadi va mendan maktabda kunim qanday o‘tganini so‘radi.

O‘sha kuni ovqatdan keyin, dasturxonni yig‘ayotib onamning otamga non biroz kuyib pishganini ming xijolat bilan aytgani kechagidek yodimda. Otam o‘sha kuni jilmayib turib, onamga: “Azizam, kuygan non menga yoqadi-ku”, - dedi.

Uxlashdan oldin otamga xayrli tun tilash uchun uning oldiga kirdim. Qiziquvchanligim ustun kelib, undan kuygan nonni rostdan ham yaxshi ko‘rish-ko‘rmasligini so‘radim. Otam meni bag‘riga bosib, qattiq quchoqladi va shunday dedi: “Bilasanmi, o‘g‘lim, hayot hech qachon mukammal bo‘lmaydi. Onang kun bo‘yi ishlab, juda charchagan. Bir marta kuygan non yesam, menga biror nima bo‘lmaydi. Lekin yomon so‘z onangni qattiq jarohatlagan bo‘lar edi.

Biz barchamiz xom sut emgan bandalarmiz. Kezi kelganda muhim sanalarni, zarur narsalarni, burchlarimizni esdan chiqarib qo‘yamiz. Shuncha yillar mobaynida o‘rgangan narsam shuki, ba‘zan bir-birimizni kamchiliklarimiz bilan qabul qilishimiz kerak. Boisi hayot afsuslar bilan uyg‘onish uchun juda ham qisqalik qiladi”. Sizga mehribon odamlarni avaylang, sizni yomon ko‘rganlarga rahmdil bo‘ling.

*(Doktor Abdul Qalam)*

### A) Oilada otaning onaga bo‘lgan munosabatining sabablarini izohlang. Siz otanaga ko‘rsatiladigan ehtiromning qanday shakllarini bilasiz? (8 ball)

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

### B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)

---

---

C) *Otam o‘sha kuni jilmayib turib, onamga: “Azizam, kuygan non menga yoqadi-ku”, - dedi. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)*

---

---

---

**3. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Kunlardan bir kuni donishmanddan: “Siz umringizda hech xato qilganmisiz?”- deb so‘radilar. “Qilganman,- debdi donishmand. – Uch marta xazinamni yo‘qotdim. Avval ne mashaqqat bilan to‘plagan boyligimni yo‘qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boyluk topdim. Keyin yana bir do‘stimni yo‘qotdim. Yo‘q, uni vafot etgan deb o‘ylamang, u haqiqiy do‘st emas ekan, boshimga tashvish tushganda tashlab ketdi, do‘stligimizga xiyonat qildi. Modomiki, menga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do‘st bo‘la olmaydi, deb o‘zimni yupatdim. Keyin boshqa chinakam do‘st topdim. Ammo bu orada shunday bir xazinamni yo‘qotdimki, buning uchun o‘zimni hech kechira olmayman. Men uni o‘z qo‘lim bilan yo‘qotib qo‘ydim. Bu bekor o‘tgan kunlarim, bekor kechgan oylarim, bekor o‘tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar, qayta tug‘ilganimda edi, o‘sha bekor o‘tgan damlarimni ham foydali ishlarga: o‘qishga, mehnatga sarflagan bo‘lardim...”

**A) Donishmand yo‘qotgan so‘nggi xazinasi uchun o‘zini kechira olmasligining sabablarini izohlang. Siz o‘tayotgan har bir daqiqangizni to‘g‘ri o‘tkazyapsizmi? Sizni chalg‘ituvchi omillar va odatlar bormi, ulardan voz kecha olasizmi? (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)**

---

---



C) *Kunlardan bir kuni donishmanddan: “Siz umringizda hech xato qilganmisiz?”- deb so‘radilar. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)*

---

---

---

**4. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Abdurauf Fitrat - XX asr o‘zbek adabiyoti, fani va madaniyatining yirik vakili, qomusiy olim, o‘tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jurnalist, davlat va jamoat arbobi.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda tug‘ilgan. Aytishlaricha, uning otasi Abdurahimboy o‘z davrining ziyoli kishilaridan bo‘lgan. U savdo bilan shug‘ullanganligi bois chet ellarga ko‘p chiqar, dunyo ahvolidan boxabar, o‘qimishli va taniqli odam edi. Onasi Mustafibi ham badiiy zavqi baland, zukko, o‘qimishli ayol bo‘lgan.

Abdurauf ilk tahsilni Buxoro maktablarida olganidan so‘ng, mashhur Mir Arab madrasasida o‘gigan. Talabalik yillarida, taxminan 18-19 yoshlarida otasi bilan haj ziyoratiga borgan, qariyb bir yilga yaqin davom etgan bu ziyorat safarida Eron, Turkiya, Suriya va Saudiya Arabistonida bo‘lgan. Avvalo, safar chog‘ida ular shu davlatlarda istiqomat qiluvchi xalqlarning turmush tarzi va madaniyati bilan tanishganlar.

Demak, Fitrat fors va o‘zbek tillarini mukammal bilib olgan edi. Ayniqsa, u arab tilini qunt bilan chuqur o‘rgandi. Fitrat birinchi o‘zbek professori hisoblanadi. Jadidshunos olimlardan biri unga: “Ma’rifatparvarlik an’analarini yangi bosqichga olib chiqqaan shaxs”, - deya ta’rif bergan.

Mustaqillik yillarida Fitratga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berilgan.

**A) Abdurauf Fitrat jadid harakatining a’zosi hisoblanadimi? Jadidlar kimlar? Jadidchilik harakati a’zolaridan yana kimlarni bilasiz? So‘nggi yillarida ularning ijodini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi sabablarini izohlang. (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)**

---

---

**C) Jadidshunos olimlardan biri unga: “Ma’rifatparvarlik an’analarini yangi bosqichga olib chiqqaan shaxs”, - deya ta’rif bergan. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)**

---

---

**5. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, kasalliklar bir-biriga o‘xshash bo‘lsa ham, har bir bemorni davolashda uni diqqat bilan o‘rganish, oilasi va yashash sharoiti bilan tanishish o‘ta muhim. Hozirgi davrda bu “psixogigiyena” deb ataladi.

Ibn Sino psixoprofilaktika bilan ham shug‘ullangan. Kasalliklarning oldini olishda tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tgan. “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”, - degan edi Ibn Sino. Bolani qo‘rqoq, g‘amgin yoki juda erka qilib o‘stirmaslik kerak. ota-ona bola nimani xohlayotganini doimo sezishi va o‘sha narsani bolaga yetkazib berishiga harakat qilishi, yomon narsalardan esa yiroqlashtirishi zarur. Bu qoidalarga rioya qilish bolaning zihnini o‘tkir qiladi, tanasini sog‘lom o‘stiradi. Kasalliklarning kelib chiqishida asab tizimining ahamiyatini katta deb bilgan olim, g‘azab, qo‘rquv, qattiq siqilishlar organizmni holsizlantirib, turli kasalliklarga moyil qilib qo‘yishini ilmiy isbotlab bergan.

**A) Kasalliklarning kelib chiqishi nimalarga bog‘liq? Matndan qanday xulosa chiqardingiz? (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)**

---

**C) “Tarbiya erta bolalik davridan boshlanishi kerak”, - degan edi Ibn Sino. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)**

---

---

---

**6. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi inson hayotini yanada qulaylashtirmoqda. Ana shunday zamonaviy texnologiyalardan biri dronlardir. Dronlar turli sohalarda, jumladan, qishloq xo‘jaligi, qidiruv-qutqaruv ishlari, xavfsizlik va media sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

Dronlarning eng katta afzalligi shundaki, ular inson hayoti uchun xavfli yoki yetib borish qiyin bo‘lgan hududlarda samarali faoliyat yurita oladi. Mutaxassislardan biri shunday degan: “Dronlar xavfli hududlarda inson o‘rnini bosib, xavfsiz ishlash imkonini yaratadi”. Bundan tashqari, dronlar vaqt va mablag‘ni tejashda ham muhim ahamiyatga ega. Dronlar yordamida ish jarayoni tezlashib, natijalarning aniqligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, dronlar zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish kelajakda yanada katta yutuqlarga erishishimizga yordam beradi. Shuning uchun dron texnologiyalarini o‘rganish va rivojlantirish bugungi yoshlar uchun muhim vazifalardan biridir.

**A) Dron nima, ular qanday boshqariladi? Dronlarning qanday turlarini bilasiz? Sizningcha, dronlardan tibbiyot sohasida ham foydalanish mumkinmi, qaysi hollarda? (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)**

---

---

**C) Mutaxassislardan biri shunday degan: “Dronlar xavfli hududlarda inson o‘rnini bosib, xavfsiz ishlash imkonini yaratadi”. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)**

---

---

---

**7. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Bir ovchi tor qo‘yib, qarg‘a, chug‘urchuq, kaptar va boshqa har xil qushlarni tutib oldi. To‘rga tushgan qushlar hadeb bir-birlariga:

- Sochilgan donga aldanib, qo‘lga tushdik. Endi qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylaylik, - der edilar. So‘ng ular o‘zaro tillashib:

- Kelinglar, hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik. Ehtimol, to‘rni ko‘tarib, qutulib ketarmiz, - deyishdi. Darhaqiqat, qushlar baravariga qanot qoqib, to‘rdan qutulib, uchib ketishdi.

Ovchi qarasa, qushlar to‘rdan xalos bo‘lib uchib ketishyapti. U qushlarning ortidan quvib ketibdi. Ovchi chopib ketayotib: “To‘rga tushgan qushlar har xil-ku! Ular, albatta, janjallashib qolishadi. Janjallashdimi - tez ucha olishmaydi, to‘r ularni pastga tortadi”, deb o‘ylabdi. Xuddi shunday bo‘libdi ham.

Qarg‘alar qag‘illashib: - Hech kim bizdek harakat qilmayapti. Sizlar sekin harakat qilyapsizlar, - deyishibdi. Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqib: - Bas endi, qarg‘alar! Maqtanchoqlikni qo‘yinglar! Biz sizdan kam harakat qilmayapmiz! - deyishibdi. Janjalga boshqa qushlar ham aralashibdilar.

Do‘stlik buzilgach, ish yaxshi yurishmabdi. Qushlar janjallashganlari uchun arang qanot qoqishardi. Shunday qilib ular pastlay boshlashibdi va oxir-oqibat to‘rga o‘ralib yerga qaytib tushishibdi.

**A) Nima uchun qushlar ovchining to‘ridan qochib keta olishmadi? Voqea boshqacha ham tugashi mumkin edimi, shunday bo‘lmaganining sabablarini izohlang. (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)**

---

---

**C) *Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqib: “Bas endi, qarg‘alar! Maqtanchoqlikni qo‘yinglar! Biz sizdan kam harakat qilmayapmiz!” – deyishibdi. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantirib yozing. (2 ball)***

---

---

**8. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Robototexnika inson aqli va texnik imkoniyatlari uyg‘unlashgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda robotlar sanoat korxonalarida, tibbiyot muassasalarida, qishloq xo‘jaligida va hatto ta‘lim tizimida faol qo‘llanilmoqda. Ular murakkab va xavfli ishlarni bajarib, inson mehnatini yengillashtiradi.

Robototexnikaning asosiy afzalliklaridan biri ishning aniqligi va tezligidir. Robotlar doimiy ravishda bir xil sifatda ishlay oladi va charchamaydi. Robototexnika ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan

tashqari, zamonaviy robotlar sun'iy intellekt asosida ishlayotgani sababli mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ham ega bo'lib bormoqda.

Robototexnika ta'lim sohasida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar bu soha orqali texnik tafakkurini rivojlantiradi va kelajak kasblariga tayyorlanadi. Muhandislardan biri: "Robotlar murakkab va takroriy ishlarni insondan ko'ra aniqroq bajaradi", - deb ta'kidlagan. Robototexnikani o'rganish kelajakda muvaffaqiyatli kasb egasi bo'lish uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, robototexnika sohasini chuqur o'rganish va undan oqilona foydalanish jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli robototexnikaga bo'lgan e'tibor tobora ortib bormoqda.

**A) Nima uchun robototexnika sohasiga qiziqish kuchayib bormoqda? Robotlarga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'luvchi omillarini yozing. (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo'ying. (2 ball)**

---

---

**C) Muhandislardan biri: "Robotlar murakkab va takroriy ishlarni insondan ko'ra aniqroq bajaradi", - deb ta'kidlagan. Berilgan ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantiring, ko'chirma gapning qolipini yozing, shu qolip asosida bitta gap tuzing. (2 ball)**

---

---

---

**9. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

Bir kuni keksa bir kishi o'z o'g'lini kulolning uyiga boshlab kelib:

- Shu o'g'limga hunaringizni o'rgatsangiz, - deb iltimos qilibdi. Kulol rozi bo'libdi. Shogird kulolnikida tuproq qazibdi, suv tashibdi, loy qilibdi, o'choqqa o't qalabdi, xullas, ustozning barcha aytganlarini to'liq bajaribdi. Ular yasagan idish-tovoqlar xaridorlarga manzur bo'lib, tez sotila boshlabdi. Oradan bir-ikki yil o'tgach, shogird

“Kulolchilikni miridan sirigacha o‘rganib oldim, endi yugurdak bo‘lib yuramanmi”, deb o‘ylabdi-da, ustozidan ketishga ruxsat so‘rabdi. Kulol unga:

- O‘g‘lim, sabr-toqat qilib, puxta o‘rganib olganing yaxshi edi, - debdi. Biroq shogird o‘z aytganida turib olibdi va ustozidan rozilik olib, o‘zi alohida ish boshlabdi. Katta bozorga borib do‘kon ochibdi va yasagan idishlarini sota boshlabdi. Xaridorlar u yasagan choynak, piyola, ko‘zachalarni tezda talashib sotib olishibdi. Buni eshitgan keksa kulol:

- Oxiri baxayr bo‘lsin! -deb, o‘z ishini davom ettiraveribdi. Biroq sal o‘tmay, shogirdining ishi yurishmay qolibdi, uning mollarini hech kim xarid qilmay qo‘yibdi. Chunki u yasagan lagan-tovoqlarning sirlari xiralashib, ko‘chib ketayotgan ekan. Ustozining do‘konida esa xaridorlar avvalgidan ham ko‘payib, savdo yanada yaxshilanib ketaveribdi. Oxiri shogird ming pushaymonlik bilan ustozni oldiga qaytib kelib, uni kechirishini va yana yonida ishlashga ruxsat berishini so‘rabdi. Shogird endi kulolchilikni mukammal egallashga astoydil bel bog‘labdi.

**A) Kulol va shogird obrazlariga ta‘rif bering. Shogirdning ishi nima uchun yurishmagan, nima sababdan hunar o‘rganayotganda sabr-toqatli bo‘lish kerak? (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo‘ying. (2 ball)**

---

---

**C) Kulol unga: “O‘g‘lim, sabr-toqat qilib, puxta o‘rganib olganing yaxshi edi”, - debdi. Berilgan ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gapga aylantiring, ko‘chirma gapning qolipini yozing, shu qolip asosida bitta gap tuzing. (2 ball)**

---

---

**10. Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring. (mulohaza)**

“YouTube”ga kirsangiz, tarmoq sizning qizqishlaringizga qarab turli videolarini taklif qila boshlaydi. Masalan, siz robot va kompyuterlarga qiziqsangiz, “YouTube” ham shu mavzularga oid videoroliklarini ko‘rsatadi. Qanday qilib? Axir, “YouTube”ning bir xodimi, faqat sizning qizqishlaringiz bilan band bo‘lmaydi- ku?

Ha, aslida bu - aqlli kompyuter. Uning sun'iy intellekti bor. U sizni kuzatib boradi! Internetda nimalarni izlaganingiz, nimalarni ko'rganingizga qarab, qiziqishlaringizni aniqlab oladi. Siz internetdan qancha ko'p foydalansangiz, aqlli kompyuter ham sizni yaxshiroq tanib oladi.

Ko'pchilik sun'iy intellekt deganda insonlarga o'xshab fikrlovchi narsani tasavvur qiladi. Ammo sun'iy intellekt biznikiday haqiqiy ongga ega emas. U oddiy dastur xolos. Faqat u shunday yaratilganki, o'z vazifalarini bajarish yo'llarini o'zi mustaqil o'rganadi va xatolardan xulosa chiqara oladi. Shu tariqa, sun'iy intellekt borgan sari yaxshilanib, bilimlarini ko'paytirib boradi. Buning uchun insonning ko'magi deyarli kerak emas.

Hozir sun'iy intellekt deyarli har bir qurilmada bor. Telefoningizda, kir yuvish mashinasida va muzlatkichda. Sun'iy intellektli avtomobillar haydovchisiz ham yurib ketmoqda. **Xullas, sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda.** Balki, kelgusida sun'iy intellekt bir necha kasblarning yo'q bo'lib ketishiga sababchi bo'lar. Masalan, suxandonlar, hisobchilar va haydovchilarning keragi bo'lmay qolar. Ammo sun'iy intellekt yaratuvchisi, sun'iy intellekt ta'mirlovchisi kabi yangi kasblar paydo bo'lish ham, tabiiy.

**A) Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlarini yozing? (8 ball)**

---

---

---

---

---

---

---

---

**B) Matnga sarlavha qo'ying. (2 ball)**

---

---

**C) Matnda ajratib ko'rsatilgan gapni ko'chirma gapga aylantiring. (2 ball)**

---

---

---